

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH INSTITUTI

Qo'lyozma huquqi asosida

UDK 330.522.2



ERGASHEVA GULHAYO MANSUR QIZI

**Asosiy fondlarning shakllanish manbalari va ularni qurilish korxonasi iqtisodiy
ahvoliga ta'sirini asoslash**

5A 340206– “Qurilish iqtisodiyoti” mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

I.f.nom, dot. Yodgorov V.U.

TOSHKENT– 2015

Тошкент архитектура-қурилиш институти
“Қурилишни бошқариш” факультети
“Иқтисодиёт ва кўчмас мулкни бошқариш” кафедраси
3.2 -сонли мажлис баённомаси

Тошкент ш.

“16” 16 2015 й.

Қатнашдилар:

проф. Зияев М.К.
проф. Джабрийев А.Н.
доц. Ёдгоров В.У.
доц. Финаева Т.М.
кат.ўқ. Носирова Л.А.
кат.ўқ. Муhibaва Г.Я.
кат.ўқ. Шокирова С.
кат.ўқ. Ражабов Ш.Ш.

Қатнашмади:

кат.ўқ. Файзиева Г.А.
асс. Юсупджонова Н.У.
асс. Абдувалиев З.М.
асс. Шарипов И.У.
асс. Тошмухамедова К.С.
асс. Мэтякубов А.Ж.
асс. Ибрагимов С.О.

Кун тартиби:

3. Иккинчи курс магистрларнинг магистрлик диссертациясининг дастлабки ҳимояси.

3-масала бўйича.

1.Магистрант Эргашева Г.М. нинг “Асосий фондларнинг шаклланиш манбалари ва уларни қурилиш корхонаси иқтисодий аҳволига таъсирини асослаш” мавзусидаги диссертацияси муҳакамаси.

Эшитилди. Эргашева Г.М. тайёрланган диссертация ишининг мазмун моҳияти, олиб борилган тадқиқот ишлари, эришилган натижалар, илмий янгилик ва унинг амалий аҳамияти ҳақида гапириб берди. У диссертациянинг ишининг тайёрланлиқ ҳолати, яқунлаш учун қилинадиган ишлар ва ҳимояга тақдим этиш муддати тўғрисида маълумот берилди.

Диссертация иши дастлабки ҳимояга қадар и.ф.ном,доц. Ёдгоров В.У. томонидан ўрганилиб чиқилганлиги маълум қилинди.

Ёдгоров В.У.: Ишнинг тўла яқунланганлиги ва магистрлик диссертацияси талабларига жавоб беришини таъкидлади.

Ёдгоров В.У: Диссертация иши бўйича иккита мақола чоп этилгани ва ишнинг тўлиқ яқунланганлиги тўғрисида гапирди.

Қарор Қилинди: Магистрлик диссертацияси яқунланган деб ҳисоблансин.

Муҳокамада келтирилган камчиликларни бартараф этиб Давлат аттестацияси комиссиясида ҳимояга руҳсат этилсин.

Кафедра мудири

Котиб

доц. Ёдгоров В.У.

асс.Абдувалиев З.М.

“Qurilishni boshqarish”	5A340206 “Qurilish iqtisodiyoti” mutaxassisligi
Fakul’teti	Magistrant: Ergasheva G.M.
“Iqtisodiyot va ko'chmas	Ilmiy rahbar: i.f.nom., dots.
mulkni boshqarish” kafedrası	Yodgorov V.U.

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzu: Asosiy fondlarning shakllanish manbalari va uning qurilish korxonasi iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini asoslash

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda qurilish ishlarini yanada rivojlantirish eng avvalo qurilish korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, fan-texnika yutuqlari asosida yaratilgan texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Shu sababli bugungi kunning o'ta dolzarb muammolaridan biri sifatida qurilish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni tashkil etish mexanizmlarini izlab topish, korxonalar asosiy fondlari tarkibini yangi va zamonaviy texnikalar bilan to'ldirish hisobiga samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarni joriy etish vazifasi turadi.

Qayd etilgan muammolarga qaratilgan, qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllantirish manbalarini korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga bog'lagan holda o'rganishga va ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan dissertatsiya mavzusi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot ishi maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi, ularning shakllanish manbalarining korxona iqtisodiy holatiga ta'sirlarini o'rganish bo'yicha nazariy-uslubiy tavsiyalarni shakllantirish. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- qurilish korxonalarining iqtisodiy-xo'jalik faoliyatini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
- asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllanish manbalarining qurilish korxonasi iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini o'rganish;
- qurilish korxonasi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari va asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarini o'rganish;

- zamonaviy texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti. Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi MChJ "STIL LIFE SERVIS" qurilish tashkiloti va tashkilot tomonidan barpo etilgan qurilish binolari.

Tadqiqot predmeti. MChJ "STIL LIFE SERVIS" qurilish tashkiloti faoliyati, asosiy fondlari tarkibi hamda korxona tomonidan amalga oshirilgan va davom etayotgan qurilish jarayonlari.

Tadqiqot metodlari: kuzatuv, umumlashtirish, taqqoslash, statistik guruhlash, yo'naltirilgan saralash, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik metodlar.

Tadqiqot ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- qurilish korxonasida marketing bo'limini tashkil qilish va rivojlantirish;
- qurilish ishlarida foydalanilmayotgan asosiy fondlarini ijaraga berish bo'yicha reklama qilish va ularni bo'sh turib qolmasligini oldini olish uchun shartnoma asosida tashkilotlarga turli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishi ;
- kelgusi qurilish ishlari bo'yicha buyurtma qabul qilishda va uyushtiriladigan tenderda ishtirok etish mobaynida qurilish smeta hujjatlarida yangi texnologiyalarga ega bo'lishni nazarda tutish lozim.

Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Ilmiy rahbar: I.f.nom, dots.



Yodgorov V.U.

Magistrant



Ergasheva G.M.

Tashkent Architecture Construction Institute

“Management construction” Faculty

“Economy and management of real estate”

5A340206 “Economy of construction” specialty

Master’s degree student: Ergasheva G.M.

Scientific leader: Ph Yodgorov V.U.

Abstract of Master’s research work

Topic: The main sources of funds and construction company based on the impact of activities.

The importance of theme: it has become the main tasks implementation for our economy some construction principles, firstly reconstruction the strength of producing companies and modernizing subject and technical goals for the scientific development. That’s why nowadays the most important thing for our economy is finding out methods of preforms and using them very carefully and paying more attention producing power also. Filling the basic aspects of factories with up to date new and modern technologies with it increase high efficiency.

Up to following problems, basic funds of construction factories and increasing this system. Period of producing learnt and scientific basic solutions must be found is the task of master’s research work.

The tasks and of research work. The main sources of funds and construction company based on the impact of economic activities, increasing theoretical and practical suggestions which are effect the economy condition of studying construction company. And it is also play a great role some aspects which influence to the developing of the construction enterprise and it’s strategy.

There are following tasks from the aim:

- Studying practical- theoretical basic aspects of construction enterprise;
- Learning influence of efficiency economy of enterprise and their basic fund structure;
- Learning level’s of main using funds of economic level’s of technical aspects of construction enterprise;
- Giving suggestions and recommendations to improve economic condition of the enterprises through keeping practice technologies and modern methods.

The object of research work: some construction buildings and construction organization of “Still-life-serves” in Yunusobod district, Tashkent city.

The subject of research work: watching, achieving information, comparing, to make groups for statistics, systematic analysis, finding directions and economic-mathematic methods.

Scientific novelty of research work:

- improving and establishing marketing department of construction enterprise;
- to give advertisements some rests which are not using in the fund of construction enterprise;
- to establish servicing system and contracts for not staying free places;
- meaning future activity documents to accept general solutions.

The research work consists of entrance, three chapter, conclusion, appendix and list of used literature.

Scientific leader:

Ph doctor Yodgorov V.U.

Master's degree student:

Ergasheva G.M.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. QURILISH TARMOG'IDA ASOSIY FONDLAR HISOBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA KORXONA FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNINING NAZARIY ASOSLARI	13
1.1. Qurilish tarmog'ida asosiy fondlar hisobi, iqtisodiy mazmuni va ahamiyati.....	13
1.2. Asosiy fondlarning tarkibi va shakllanish manbalari, qurilish korxonasi iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi roli.....	21
1.3. Qurilish korxonasi miqyosida asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari.....	28
I bob bo'yichaxulosa.....	37
II BOB. ASOSIY FONDLAR VA QURILISH OB'YEKTI SMETA BO'YICHA QIYMATINI BELGILASH TARKIBI, TUZILISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	39
2.1. "STIL-LIFE SERVIS" ma'suliyati cheklangan jamiyatining 2012-2014-yillar bo'yicha asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	39
2.2. 2012-2014-yillarda "STIL-LIFE SERVIS" MChJ ning asosiy fondlari tarkibi va ularning harakati tahlili	43
2.3. MChJ "STIL-LIFE-SERVIS" ning 2012-2014-yillardagi asosiy fondlar bo'yicha fond qaytimining omilli tahlili.....	60
2.4. MChJ "STIL-LIFE-SERVIS" tomonidan amalga oshirilgan turarjoy kompleksi qurilishida asosiy fondlarning ulushi.(Namuna asosida tahlil).....	64
II bob bo'yicha xulosa	68
III bob. ASOSIY FONDLARNING HOLATI VA HARAKATINI KORXONA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI ASOSLASH.....	70
3.1. Asosiy fondlarning qurilish korxonasi ishlab chiqarish salohiyatiga ta'siri.....	70
3.2. Qurilish ishlari smetasida yangi mashina-mexanizmlardan foydalanish orqali qurilish korxonasi asosiy fondlari tarkibini yangilash yo'llari.....	74
III bob bo'yicha xulosa	82
Xulosa.....	83
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	86
Ilovalar.....	91

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan korxonalarni modernizatsiyalash sharoitida jalb etilayotgan investitsiyalardan oqilona foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. “Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal va mutanosib iqtisodiy o’sishi, chuqur tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo’naltirilgan siyosat yuritish eng muhim omil hisoblanadi. 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o’sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo’yilmalarning 21,2 foizdan ortig’i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil qildi”¹[I.A.Karimov, 2015].

Prezidentimiz ma’ruzalarida keltirilganidek, 2014-yilda o’zlashtirilgan jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig’i ishlab chiqarish sohasi korxonalari qurilishiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflanganligini inobatga oladigan bo’lsak, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish tarmog’ining nufuzi yuqori ekanligini anglab yetish mumkin.

Mamlakatimizda faqatgina o’tgan “2014-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo’lgan 154 ta yirik ob’ekt foydalanishga topshirildi”² [I.A.Karimov, 2015-y]

Respublikamizda qurilish ishlarini yanada rivojlantirish, eng avvalo qurilish korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

^{1,2} - O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi. 18-yanvar 2015-yil.

Buning isbotini Prezidentimiz tomonidan 2014-yil 3-martda tasdiqlangan “Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2137-sonli Qarori³ hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-yanvardagi “Sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlarining barqaror faoliyatini va ularning quvvatlaridan yuqori darajada foydalanishni ta’minlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 11-sonli Qarori⁴ misolida ko’rishimiz mumkin.

Prezidentimiz ma’ruzalarida keltirilgan ustuvor vazifalar va yuqorida zikr etilgan Qarorlar ijrosini ta’minlash yuzasidan ishlab chiqilgan dasturlar eng avvalo qurilish korxonalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga hamda ularda mavjud asosiy fondlardan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratiladi. Mazkur Qarorlar ijrosi har bir qurilish korxonasida asosiy fondlar bilan ta’minlanish darajasini o’rganish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va maqsadli foydalanish borasida 2020-yilga qadar amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirishni taqazo etadi.

Shu sababli bugungi kunning o’ta dolzarb muammolaridan biri sifatida qurilish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni tashkil etish mexanizmlarini izlab topish, korxonalar asosiy fondlari tarkibini yangi va zamonaviy texnikalar bilan to’ldirish hisobiga samaradorligi yuqori bo’lgan texnologiyalarni joriy etish vazifasi turadi.

Qayd etilgan muammolarning Mazkur dissertatsiya ishida hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibini tahlil qilish, ularni shakllantirish manbalarini o’rganish orqali va ularning

³ - O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2137-sonli “Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori. 2014-yil 3-mart. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2014 y. 11-son.

⁴ - O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-yanvardagi “Sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlarining barqaror faoliyatini va ularning quvvatlaridan yuqori darajada foydalanishni ta’minlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 11-sonli Qarori. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2015 y. 1-son. 3-modda.

qurilish korxonasining xo'jalik faoliyati natijalari bilan bog'lagan holda tadqiq qilishga qaratilgan .

Qayd etilgan myammolarga qapatilgan, qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllantirish manbalarini korxonaning ishlab chiqapish jarayoniga bog'lagan holda o'rganishga va ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan dissertatsiya mavzusi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikamizda qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllantirish manbalarining korxonaning xo'jalik faoliyati samaradorligiga va iqtisodiy ahvoliga bog'liqligini ilmiy asoslash hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi, ularning shakllanish manbalarining korxona iqtisodiy holatiga ta'sirlarini o'rganish bo'yicha nazariy-uslubiy tavsiyalarni shakllantirish. Ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari: Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, quyidagilartadqiqot ishining asosiy vazifalar hisoblanadi:

- Qurilish korxonalarining iqtisodiy-xo'jalik faoliyatini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
- asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllanish manbalarining qurilish korxonasi iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini o'rganish;
- qurilish korxonasida asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarini o'rganish;
- tadqiqot ishida ob'yekt sifatida olingan qurilish korxonasining asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

- korxona tomonidan amalga oshirilayotgan turarjoy kompleksi qurilishida asosiy fondlar ishtiroki va samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti: Toshkent shahar Yunusobod tumanida joylashgan MChJ "STIL LIFE SERVIS" qurilish tashkiloti va ushbu tashkilot tomonidan barpo etilgan qurilish binolari.

Tadqiqot predmeti. MChJ "STIL LIFE SERVIS" qurilish tashkiloti faoliyati, asosiy fondlar tarkibi va harakati hamda korxona tomonidan amalga oshirilgan va davom etayotgan qurilish jarayonlari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura qurilish qo'mitasi Qarorlari va me'yoriy hujjatlari, qurilish korxonalari faoliyati va qurilish ishlarini tashkil etish, asosiy fondlardan fodalanishga bag'ishlangan yurtimiz hamda xorijlik olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, shuningdek, qurilish korxonalari asosiy fondlariga oid chop etilgan ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, umumlashtirish, taqqoslash, statistik guruhlash, yo'naltirilgan saralash, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik va boshqa ilmiy ishlarda qo'llanilgan metodlaridan foydalanildi.

Kutilayotgan natijalar. Mavzu yuzasidan ilmiy maqolalar chop etish, belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llashni joriy etishga erishish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining yakuniy natijasi asosida quyidagi ilmiy yangiliklar erishildi:

- Qurilish korxonalari asosiy fondlarining iqtisodiy ahvoliga ta'sirini baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish yo'llari taklif qilish;

-Asosiy fondlar eskirishini korxona faoliyatiga ta'sirini kamaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Himoyaga olib chiqiladigan holat. Tadqiqot ishida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qurilish korxonalarining asosiy fondlarini yaxshilash va sifatini oshirish natijasida korxona iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishishi va taraqqiy etishi nuqtai nazaridan nazariy va uslubiy tavsiyalar berishdan iborat.

Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, 3 ta asosiy bob, 11 ta paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Asosiy fondlarning shakllanish manbalari va ularni qurilish korxonasi iqtisodiy ahvoliga ta'sirini asoslash mavzusidagi uslubiy asoslari hamda uni takomillashtirish masalalari borasida O'zbekiston hududida va boshqa ko'plab xorijiy davlatlarda ham ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy davlatlar olimlari Arens A, R.Dodj., Entoni R.D, Ogiychuk M.F, Yefimova O.V, MDH olimlaridan P.S.Stepanov, L.F.Suxova, T.G.Doroshenko, Kondrakov N.P, Koenuhar V.M, Didkovskaya O.V, Krushinskiy Y.A, Mishi E.S, O'zbekiston olimlaridan K.B.Urazov, T.G.Gulyamova, U.T.Fayziyeva, G'.F.G'ulomov, Isakov M.Y., Gadoyev E.A, Maxmudov E.X., Qodirxonov S.A, M.Umarova., Beganov V.S., Xoshimov B, Soliyev A, Qodirov A.lar asosiy fondlarning shakllanish manbalari, ularning korxonadagi o'rni masalalari yuzasidan ko'plab ilmiy izlanishlar, qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Jumladan, Arens A. o'zining iqtisodiyotga oid "Audit" nomli monografiya va ilmiy ishlarida asosiy vositalarning tarkibi, iqtisodiyotning ko'plab sohalarida ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida qatnashishi, ularni bir-biridan alohida tarzda o'rganish zarurligi, tarmoqlar sohasida qatnashish darajasiga ko'ra farqlanishi to'g'risida o'z fikrlarini ilmiy asoslarda bildirgan.

R.Dodj o'zining "Economics" nomli ilmiy ishlarining bir nechtasida asosiy fondlar qurilish industriyasidagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatiga bevosita ta'siri, qurilish tashkilotlarining asosiy fondlar bilan jihozlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ishlab chiqarish quvvati ham shu qadar yuqori bo'lishi, bularning barchasini hisobga olgan holda qurilish korxonasining yillik, choraklik va yillik quvvatini aniqlash mumkinligi hamda asosiy fondlarni hisobga olish, ularni amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarni ko'rsatgan.

Entoni R.D. ham boshqa olimlar singari o'zining ilmiy ishlarida asosiy fondlarni ko'paytirishni tahlil qilish, baholash va strategiyasini belgilab olishda ularning tuzilmasi-asosiy fondlarning ayrim guruhlarining ularning hajmi qiymatidagi

ulushi, shakllanish manbalarining tahlili, ularning ahamiyati, asosiy fondlarning qiymatidagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham fond qiymati ko'rsatkichi ham yuqori bo'lishi, ishlab chiqarish fondlari tuzilmasini yaxshilashga ishlab chiqarish va fond qiymatini oshirishning muhim sharti deb qaraydi.

Ogiychuk M.F. "Учёт основных фондов на предприятиях" nomli kitobida ham asosiy fondlarning shakllanish manbalari, asosiy fondlarning korxona iqtisodiy ahvolidagi ta'sir etishi, ularning guruhlanishi, qaysi darajalariga ko'ra bir-biridan ajratilishi, ularning amortizatsiya hisobi, ishlab chiqarish fondlarining tarkiblari, ekspluatatsiya jarayonida muntazam eskirishi va ishdan chiqib ketishini hisoblari borasida o'z fikrlari va ilmiy izlanish natijalari keltirib o'tilgan.

Yefimova O.V. "Финансовый анализ" kitoblarida asosiy vositalarning moliyaviy tahlili asosida korxonaning rentabellik darajasiga ta'sirini, asosiy vositalarga ketgan harajatlarning ulushi borasida qator misollar bilan keltirilgan.

MDH mamlakatlari olimlari ham bu masala borasida o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishgan.

Jumladan, Stepanov P.S. "Экономика строительства" nomli darsligida kapital qurilishda asosiy fondlarning klassifikatsiyasi va tuzilishi, asosiy fondlarni baholash, asosiy fondlarning ma'naviy va jismoniy eskirishi, asosiy fondlar amortizatsiyasi, asosiy fondlardan foydalanish borasidagi samaradorlik va qurilish korxonasi faoliyatidagi muhim o'rni haqida keng yoritib berilgan.

Kondrakov N.P. "Бухгалтерский учет" kitobida asosiy fondlarning ayrim guruhlari, eskirish qiymatlari, ular bo'yicha amortizatsiya hisob ko'rsatkichlari, koeffitsientlari, asosiy fondlarni buxgalteriya yozuvlarda qanday tartibda aks ettirilishi, ularni hisobga olish va hisobdan chiqarish holatlarini tahlil etish yuzasidan ilmiy va amaliy ahamiyati haqida keltirib o'tilgan.

T.G.Doroshenko ilmiy tadqiqot ishida qurilish ob'ektlarining smeta qiymati bo'yicha me'yorlashning me'yoriy-axborot bazasi tavsiflanib, keng tahlil qilingan.

Shuningdek, qurilish ob'yektlarini qurish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash uchun smeta-normativ bazasini takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Krushinskiy Y.A.ning ilmiy tadqiqot ishlarida qurilish ob'yektining asosiy fondlarining qiymatini aniqlash, uni shakllantirishga raqobat muhitining ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, ishning amaliy ahamiyati, qurilish ob'yektini qurilish-pudrat korxonalari bilan shartnomaviy qiymatini shakllantirishda belgilangan koeffitsientini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

Didkovskaya O.V. ning ilmiy ishlarining asosiy yo'nalishi mintaqada qurilish korxonalari tomonidan olib boriladigan jarayonlar va ob'yektlarning smeta qiymatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Shuningdek, qurilish ob'yekti qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi resurslar smeta qiymatlari bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Fan-texnikaning taraqqiy etishi davrida qurilish ob'yekti qiymatini hisoblash va tahlil qilishda axborot texnologiyalari muhim hisoblanadi.

Mishi E.S.ning ilmiy ishlarida smeta hisoblarini avtomatlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, transport infratuzilmasi ob'yektlari qurilish qiymatini shakllantirishda information texnologiyalarini qo'llashning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston olimlari ham asosiy fondlarning shakllanish manbalari va ularning korxona iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini asoslash borasida ko'plab ilmiy kitoblar, ilmiy ishlar hamda maqolalar yozishgan.

Jumladan, K.B.Urazovning o'zining shu sohaga bag'ishlangan "Buxgalteriya hisobi va audit" o'quv qo'llanmalarida asosiy vositalarning moddiy-texnik bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini alohida turlari, ularning shakllanish manbalari, ularning tasniflanishi, ishlab chiqarish va qurilish sohalaridagi o'rni, asosiy fondlar turli tarmoqdagi korxonalarning iqtisodiy ta'siri, ularning ko'payishi, asosiy fondlarning ta'mirlanish muddatlari, asosiy fonlarning amortizatsiyasi hisobi, ularni sotish va boshqa chiqimlarining hisoblari, qurilishda qanday ahamiyatga ega ekanligi

to'g'risidagi ko'plab aniq asoslarga ega bo'lgan ma'lumotlar va misollar orqali keltirilgan.

T.G.Gulyamovning "3000 ta buxgalteriya o'tkazmasi" nomli kitobida asosiy fondlar, ularning korxona faoliyatidagi o'rni, kelib chiqish manbalari, mulkchilik huquqida korxonaga tegishli bo'lgan asosiy fondlarning mavjudligi va harakati, foydalanilayotgan, konservatsiya qilingan yoki operativ ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirilgan tarzda hamda ularning buxgalteriya hisobvaraqlar rejasi bo'yicha bog'lanishlar alohida jadvallar va buxgalteriya yozuvlari orqali berilgan.

G'.F.G'ulomovning "Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma" nomli amaliy qo'llanmada asosiy vositalar borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida ularning guruhlanishi, tarmoqlar faoliyatidagi qatnashishi aks ettirilgan. Unga ko'ra asosiy fondlarning qiymati bo'yicha buxgalteriya hisobida to'g'ri baholanishi korxonaing iqtisodiy ahvoriga ta'sirlari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

R.O.Xolbekovning "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli darsligida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning asosiy fondlarini tashkil etuvchi mablag'lari, ularning tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish zaxiralari, tugallangan va tugallanmagan qurilish ob'yektlari, shakllanish manbalariga ko'ra turlarining tavsifi va ularga oid qo'shimcha izohlar, korxona balansidagi o'rni hamda faoliyatga ta'sir etuvchi manbalari to'g'risida keltirib o'tilgan.

Inoyatov I.A, Nurimbetov R.I. "Qurilish korxonalari xo'jalik faoliyati tahlili" o'quv qo'llanmasida asosiy fondlar bilan asosiy mablag'lar orasidagi tafovutlar, ularning tarkibiy tuzilmasi, ularning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Maxmudov E.X. "Korxona iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmasida asosiy fondlar va korxona faoliyatidagi o'rni, alrni baholash, eskirishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari tahlili, ularning qurilishda foydalanish darajasiga ko'ra tasniflari, ularning turli ko'rsatkichlari masalar yordamida ularni hisoblash yoritilgan.

Qodirov S.A.ning “Korxona iqtisodiyoti” nomli kitobida bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoita korxonaning iqtisodiyoti, uning asosiy ishlab chiqarish fondlarining ahamiyati, asosiy fondlar hisobi va nazoratini tashkil etish, ularni standartlar asosida yuritish borasidagi ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

M.Umarovanning “Buxgalteriya hisobi” nomli darsligida ham asosiy fondlar to’g’risida fikrlari keltirilgan bo’lib, asosiy fondlarning boshlang’ich, eskirish qiymatlarini hisobi, xo’jalik faoliyati jarayonidagi ishtiroki, iqtisodiy ko’rsatkichlar tahlili, asosiy fondlar sifatini oshirish va to’la foydalanish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ichki rezervlarini aniqlash, tarmoqlar doirasidagi ahamiyati yoritilgan.

Abduraxmonov I.S. ning ilmiy tadqiqot ishlarida qurilish ob’yektini smeta qiymatini aniqlashning yiriklashtirilgan ko’rsatkichlari keng tadqiq qilingan. Yiriklashtirilgan ko’rsatkichlar qurilish tarmoqlari hamda temir yo’l qurilishi misollari orqali keng yoritib berilgan.

Xoshimov B. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” darsligida asosiy fondlarning xo’jalik faoliyati jarayonidagi ishtiroki, ularning tarkibiy tuzilmasi, tugallangan va tugallanmagan qurilish ob’yektlari, shakllanish manbalariga ko’ra turlari, asosiy fondlar turli tarmoqdagi korxonalarning iqtisodiy ta’siri, ishlab chiqarish quvvatidagi ishtiroki hamda korxona iqtisodiyotini rag’batlantirish va asosiy fondlar sifatini oshirish evaziga ishlab chiqarish intensivligini oshirish mumkinligi borasida kerakli xulosalar berilgan.

Soliyev A.ning “Iqtisod.Buxgalteriya hisobi.Audit” nomli o’quv qo’llanmasida asosiy fondlar hisobini tashkil qilish, ularning ishlatilish va foydalanish muddatlari bo’yicha belgilari, guruhlari, tarkibi, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan va qatnashmaydigan asosiy fondlar tarkibini aniqlash, ularni baholash, boshlang’ich qiymati, qayta tiklash qiymati va qoldiq qiymatlarini va ular o’rtasidagi farqlar, asosiy fondlarni kelib chiqish manbalarini tahlil etish, ularni ijaraga berish, ustavdagi o’rni, izlanish natijalari amaliy misollar bilan berilgan.

I BOB. QURILISH TARMOG'IDA ASOSIY FONDLAR HISOBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA KORXONA FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Qurilish tarmog'ida asosiy fondlar hisobi, iqtisodiy mazmuni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan ilk yillardanoq milliy iqtisodiyotimizda muhim sanalgan miqdor va sifat o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda mamalakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni erkinlashtirish, iqtisodiy islohotlarni mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam joy egallab borishibozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchunmaxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni isloh qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan bo'lib, mustaqil o'z xo'jalik faoliyatlarini yurituvchi sub'yektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalarga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lishi bilan birga, mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondirishda ushbu korxonalarning o'rni va roli kattadir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan to'g'ri va izchil iqtisodiy siyosat orqali ahamiyatli hamda ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan bir tomonlamalilik yondashuv va inqiroz holatidan chiqarildi, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridag imutanosiblik kuchaydi,

bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan ko'plab sohalar kabi qurilish tarmog'ida ham anchayin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bosh maqsadimiz mamlakatni modernizatsiya va isloh etish dolzarb bo'lgan bunday sharoitda, yangi iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan yillar mobaynida qurilish korxonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni sezilarli darajada rivojlandi. Iqtisodiyotning har bir sohasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar qatorida qurilish sohasida ham ko'plab yangiliklar joriy etilib, amaliyotga yangi texnika va texnologiyalar olib kirish orqali mehnat unumdorligini oshirish va ishchilarni yangicha qulayliklar bilan ta'minlash maqsadida zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, 2015-yil yanvardan e'tiboran qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yagona soliq stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi. 2014-yil yakunlari hisobiga ko'ra, kapital qurilish ishlari hajmi 10,9 foizga oshdi. Ushbu ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, yurtimizda bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa o'z navbatida har bir qurilish tashkilotlari uchun yangi imkoniyatlar sari keng yo'l ochib beradi.

Yurtimizda bunyodkorlik ishlarining tobora taraqqiy etayotganligi ushbu korxonalarda zamon talablariga mos yangiliklar kiritishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida qurilish tashkilotlarining asosiy bo'g'ini hisoblangan asosiy fondlarni shakllantirish va yangilash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Asosiy fondlar - ham moddiy ishlab chiqarish sohasida (asosiy ishlab chiqarish fondlari), ham noishlab chiqarish sohasida (noishlab chiqarish asosiy fondlari) band bo'lgan material-moddiy qiymatlar majmuasi hisoblanadi. Qurilish xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun turli korxonalar, bino va inshootlarni qurish davomida mamlakat uchun asosiy fondlarni bunyod etishda ishtirok etadi, biroq o'z navbatida o'zi ham ulardan mehnat va ishlab chiqarish qurollari sifatida foydalanadi. Shuning

uchun qurilish mahsuloti sifatida va zaruriy ishlab chiqarish qurollari sifatidagi asosiy fondlarni bir-biridan ajratish lozim.

Qurilish sohasida asosiy fondlar korxona faoliyatidagi ishtirokiga ko'ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etib, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etadi va quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish bino va inshootlari;
- ishchi mashina va asbob-uskunalar;
- mashina va asbob-uskunalar;
- transport vositalari;
- asbob-uskunalar va ishlab chiqarish jihozlari.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etmaydi. Ularning eskirish qiymati ko'rsatilgan xizmat va ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga bevosita qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish asosiy fondlariga quyidagilar kiradi:

- uy-joylar;
- kommunal xo'jalik ob'ektlari;
- madaniy-maishiy ob'ektlar;
- sog'liqni saqlash va maorif ob'ektlari.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari tarkibiga korxona balansidagi boshqarish va asosiy ishlab chiqarish jarayoniga, ishchi xodimlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy binolar, xo'jalik binolari, oshxona, profilaktika, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun xizmat qiluvchi binolar, bolalar bog'chalari, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ob'ektlar va ulardagi asosiy fondlar kiritiladi.

Asosiy fondlar odatda korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklarning asosiy vositalari sifatida ko'rsatiladi, vaholanki bu ularning elementlar bo'yicha, ya'ni bino

va inshootlar, ishchi va quvvat mashinalarida, transport vositalarida va hokazolarda qancha mablag' borligi bo'yicha hisobga olinishiga to'sqinlik qilmaydi.

Qurilish korxonalarining asosiy fondlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarakteridan kelib chiqib, iqtisodiyotning boshqa sohalaridagidan tubdan farq qilmaydi. Ularning farqlanuvchi jihatlari esa asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- qurilish korxonalarida asosiy fondlarning katta qismini ishchi mashina, transport va asbob uskunalar tashkil etadi;
- ishlab chiqarish quvvatlarini bir vaqtning o'zida to'liq almashtirib, yangilab bo'lmaydi va bu jarayon tizimda doimiy ravishda amalga oshirib boriladi.
- asosiy fondlarning eskirish muddatiga va mehnat unumdorligiga tabiiy iqlim va ob-havo, kutilmagan avariya holatlari katta ta'siri ko'rsatadi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasiga va mehnat predmetlariga ko'rsatadigan ta'siriga qarab ikki qismga: aktiv va passivga bo'linadi:

- qurilish korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv guruhiga maxsus transport vositalari, kuch beruvchi mashinalar va uskunalari, ishchi mashina va mexanizmlar, transport vositalari kabi ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi asosiy vositalar kiradi.

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv guruhiga ishlab chiqarish jarayonida bilvosita ishtirok etuvchi asosiyvositalar - bino va inshootlar, ya'ni ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatuvchi yordamchi jarayonlar bilan band bo'lgan imoratlar va ob'yektlar (idoralar, omborxonalar, laboratoriyalar, boshqaruv apparati joylashgan binolar)va boshqalar kiradi.

Asosiy fondlarning umumiy hajmida aktiv va passiv guruhlarining miqdori bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar bo'yicha tarkibini ko'rsatib uning ulushi foizlarda o'lchanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasida, aktiv fondlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ulushini ko'paytirish va tarkibini yangilab borish korxona faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy fondlarni ko'paytirishni tahlil qilish, baholash va strategiyasini belgilab olishda ularning tuzilmasi - asosiy fondlarning ayrim guruhlarini ularning jami qiymatidagi ulushi muhim vosita hisoblanadi.

Korxona asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentrasiya qilish darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalarga qaraganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Mashina va asbob-uskunalarining, transport vositalarining jami asosiy fondlar qiymatidagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham, fond qaytimi ko'rsatkichi ham shu qadar yuqori bo'ladi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini yaxshilashga ishlab chiqarish va fond qaytimini oshirishning muhim sharti deb qaraladi.

Asosiy fondlar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi ishlab chiqarish quvvatlarining asosini shakllantiradi. Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish vositalarining asosiy qismini tashkil etib, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida xizmat qiladi. O'z moddiy salohiyatini va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga qismlab o'tkazib boradi. Asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida eskirishi hisobidan o'z qiymatining ma'lum bir qismini tayyorlanayotgan mahsulot tannarxiga o'tkazishi amortizatsiya deb atalib, eskirish qiymati yig'indisi amortizatsiya ajratmalarini tashkil etadi.

Korxona faoliyatiga asosiy fondlarning ekspluatatsiya muddati va eskirish darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fondlar ekspluatatsiya (foydalanish) jarayonida muntazam ravishda eskirib, ishdan chiqib boradi. Asosiy vositalarning (ayniqsa aktiv guruhdagi) ekspluatatsiya muddati qanchalik katta bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik pasayadi. Asosiy fondlar xizmat muddatlarining ortib borishi ularning ekspluatatsiya harajatlarning ham ortib borishiga olib keladi. Shu sababdan asosiy fondlarga nisbatan jismoniy va ma'naviy eskirish tushunchalarini izohlab o'tish zarur.

Jismoniy eskirish - asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida yoki bekor turish natijasida o'zining dastlabki xarakteristikalarini asta-sekin yo'qotishidir. Bu notekis kechuvchi jarayon bo'lganligi tufayli, asosiy fondlar to'liq yoki qisman eskirishi bilan ajratiladi. To'liq eskirgan asosiy fondlar tugatiladi va yangisiga almashtiriladi, qisman eskirgan asosiy fondlar esa ta'mirlash yo'li bilan tiklanadi.

Ma'naviy eskirish - mashina va asbob-uskunalar qiymatining ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan ijtimoiy zaruriy harajatlarning kamayishi ta'sirida kamayib borishi (ma'naviy eskirishning birinchi shakli) yoki ularning qiymatining yangi, ilg'or va samarali mashina va asbob-uskunalar yaratilishi natijasida kamayishidir (ma'naviy eskirishning ikkinchi shakli).

Jismoniy eskirish asosiy fondlardan jadal foydalanish oqibatida yoki meteorologik va boshqa tabiiy sharoitlar ta'sirida yuzaga keladi.

Eskirishni qoplash uchun korxonalarga mablag' zarur. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar o'z qiymatini amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazadi. Bular belgilangan normalarda mahsulot tannarxiga kiritilganda, mahsulotni sotishdan tushgan puldan ular jamg'arilib, maxsus fond tashkil etiladi. Asosiy fondlar jismoniy holatni, shunga ko'ra eskirish ko'lamini aniqlash qiyin bo'lganligi uchun eskirishni hisoblangan amortizatsiyaga teng deb bilish qabul qilingan.

Asosiy fondlarning eskirishini tiklash korxona va tashkilotlarning maxsus mablag'lari asosida - amortizatsiya ajratmalari hisobiga amalga oshiriladi. Ularning summasi asosiy fondlarning qiymatiga, ularning xizmat muddatiga, ta'mirlash va modernizatsiyalash harajatlariga bog'liqdir. Bu mablag'lar odatda korxonaning amortizatsiya fondida to'planib boradi va faqatgina asosiy fondlarni tiklash va ta'mirlash maqsadlarida foydalaniladi.

Yillik amortizatsiya summasining asosiy fondlar qiymatiga nisbati foizlarda ifodalanganda **amortizatsiya me'yori** deb ataladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$(1.1)$$

Bu yerda:

F_1 - asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

F_2 - asosiy fondlarning tugatish qiymati;

T_a - asosiy fondlarning amortizatsiya muddati yoki xizmat muddati, yil.

Dastlabki qiymat - asosiy fondlarni sotib olish paytidagi harajatlar summasi (yetkazib berish, o'rnatish yoki montaj harajatlari bilan birga).

Tiklash qiymati - asosiy fondlarning bugungi kundagi inflyatsiya, qayta baholash va hokazolarni hisobga olgan holda hisoblangan qiymati.

Qoldiq qiymat - bu asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati bilan eskirish summasi o'rtasidagi farqdir.

Asosiy fondlarni to'liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$A = N_{amor} \times F, \quad (1.2)$$

Bu yerda:

F - asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qurilish korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish quvvati - berilgan mashina va asbob-uskunalar, texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubida mahsulot ishlab chiqarishning maksimal hajmi. Buni hisobga olgan holda qurilish korxonasining yillik, choraklik va oylik ishlab chiqarish quvvatini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, quyidagi formula yordamida korxonaning o'rtacha yillik quvvatini hisoblash ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda:

$$F = F_1 + \frac{F_{ish} \cdot P_1}{12} - \frac{F_{chiq} \cdot P_2}{12} \quad (1.3)$$

Bu yerda:

F_1 - korxonaning yil boshidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

F_{ish} - yil davomida ishga tushiriladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

F_{chiq} - yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

P_1 va P_2 – asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishga tushish (ishdan chiqish) paytidan boshlab o'tgan to'liq oylar soni.

Ishlab chiqarish quvvatini va umuman asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni hisoblashda bir qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

- ekstensiv ko'rsatkichlar – asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning vaqt bo'yicha ko'rsatkichlari;
- intensiv ko'rsatkichlar – asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning unumdorlik (quvvat) ko'rsatkichlari;
- integral ko'rsatkichlar – ekstensiv va intensiv omillarning jami ta'sirini, ya'ni ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlarning hosilasini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.

Mazkur ko'rsatkichlar asosan asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning natural ko'rsatkichlari hisoblanadi va quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi:

- asbob-uskunalar va mashinalarning bandlik koeffitsienti;
- almashinuv koeffitsienti;
- asbob-uskunalarining unumdorligi.

Ular bilan bir qatorda amaliyotda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning qiymat ko'rsatkichlari ham keng qo'llanilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Fond qaytimi - ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan miqdori;
- Fond sig'imi - fond qaytimi ko'rsatkichiga teskari ko'rsatkich;
- Fondlarning rentabelligi- asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini baholash va ulardan foydalanishni tahlil qilishda mehnat va ishlab chiqarishning fond bilan qurollanganligi hamda uning yana bir turi - mehnat va ishlab chiqarishning mexanik qurollanganligi kabi ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olish lozim.

1.2. Asosiy fondlarning tarkibi va shakllanish manbalari, qurilish korxonasi iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi roli.

Qurilish korxonasi iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri bu- asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibini yaxshilashdir. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- mashina parkini texnikaning yangi turlari bilan to'ldirish yo'li bilan;
- ishlab turgan mashina va asbob-uskunalarini modernizatsiyalash bilan;
- ortiqcha va kam foydalaniladigan asbob-uskunalarini tugatish bilan.

Korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot ishining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad-bu iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan qurilish sohasida mavjud korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari holatini va resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tadqiq etish, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash hamda korxonada asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- qurilish korxonasining asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlaridan samarali foydalanish;
- korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi va o'zgarishini to'g'ri va aniq tahlil qila olish;
- korxonaning asosiy fondlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- korxonada ishlab chiqarish quvvatini oshirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va h.k.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qurilish industriyasidagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qurilish tashkilotlarining fond bilan jihozlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ishlab chiqarish quvvati ham shu qadar yuqori bo'ladi.

Ishlab chiqarish quvvati - berilgan mashina va asbob-uskunalar, texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubida (ishchilar soni va ajratilgan vaqtni hisobga olgan holda) mahsulot ishlab chiqarishning (qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning) maksimal hajmi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalari va yirik aksiyadorlik jamiyatlari, birlashmalari, odatda, faqat asosiy ishlab chiqarish maqsadida emas, balki korxonaning boshqa uchastkalari va xizmatlari, kommunal, turar joy va boshqa xo'jalikdai ish shart-sharoitlarini ta'minlash maqsadidagi asosiy fondlarga ega bo'ladi. Bunday korxonalar

asosiy fondlari tarkibida ikkita guruh: sanoat-ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari farqlanadi.

Korxona asosiy fondlari natura va pul ifodasida hisobga olinadi. Natura ifodasidagi hisob fizik o'lchov birliklarida (m, kg, dona va hokazolar) yoki quvvati bo'yicha amalga oshiriladi. Ayrim asosiy fondlar bo'yicha natura ko'rsatkichlari statistik hisobda bor. Asosiy fondlarni pulda baholash buxgalteriya hisobi va hisobotida olib boriladi. Asosiy fondlar moliyaviy hisobotida 1-shakl "Buxgalteriya balansi" va 3-shakl "Asosiy vositalar harakati to'g'risida"gi hisobotda ko'rsatiladi.

Qurilish tashkilotlari asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilab borishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va Arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasining 2003-yil 14- oktyabrdagi Qaroriga ko'ra«Pudratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'larga soliq solish bazasini kamaytirish qismida daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risida NIZOM» qabul qilindi. Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12- sentyabrdagi 395-sonli "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va pudratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga soliq solinadigan bazani kamaytirish daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibini belgilaydi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar yetmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxona shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari lizing deyiladi (ingl. Lease - ijar).

«Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (23.10.2003 y. № 462) qabul qilingan bo'lib, unda kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'lida ijara va lizing xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ko'zda tutilgan.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligiga turli omillar ta'sir qiladi:

- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi;
- asosiy fondlar o'rtacha yillik summasi;
- ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar mehnatining samaradorligi;
- asosiy fondlar samaradorligi;
- asosiy fondlar alohida turlaridan foydalanish samaradorligi kabilar kiradi.

Tahlil qilishda ushbu omillar ta'sirini hisoblash, o'tgan yil ishlab chiqarish dasturi ma'lumotlari bilan taqqoslash va dinamikasini o'rganish lozim. Asosiy fondlarning alohida turlari, avvalambor, ularning aktiv qismidan foydalanish ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha uskunalar mavjud, o'rnatilgan va ishlayotganlarga ajratiladi.

Mavjudlariga korxona ixtiyorida bo'lgan, qayerdaligi (sex, ombor) va qanday holatdagidan qat'iy nazar, barcha uskunalar kiradi.

O'rnatilgan uskunalar - bu montaj qilingan va ishga tayyorlangan ish joyidagi uskunalardir.

Ishlayotgan uskunalar - bu qancha vaqt turganligidan qat'i nazar, (hisobot davrida) amalda ishlayotgan uskunalardir.

Asosiy fondlar samaradorligini tahlil qilishda muayyan sanadagi amalda mavjud uskunalarga nisbatan o'rnatilgan uskunalar darajasini aniqlash, ya'ni o'rnatilgan uskunalar koeffitsientini quyidagi formula bo'yicha hisoblash lozim:

$$O'rn.usk.K = \frac{O'rn.usk.}{Amal.mar.} \quad (1.4)$$

Bu yerda:

O'rn.usk. -O'rnatilgan uskunalar;

Amal.mav. -amalda mavjud uskunalar.

O'rnatilmagan uskunalarining barcha turlari va sabablarini ham aniqlash lozim. O'rnatilmagan uskunalar - «harakatsiz» sarmoyadir. Uni joriy qilish chiqarilayotgan mahsulotning ko'payishiga olib keladi va undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda ekstensiv va intensiv omillarning ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga ta'sirini topish ham zarurdir.

Uskunalaridan ekstensiv foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga: uskunalarning miqdori, jumladan, ishlatilmayotgan mehnat vositalari ulushi; uskunalarining ishlamagan vaqti (dastgoh, soatlar); uskuna ishlashining smenadorlik koeffitsienti; mashina va dastgohlar saroyi tuzilishi kabilar kiradi.

Bir uskunadan ekstensiv foydalanish koeffitsienti ishlangan mashina va mashina-soat amaldagi miqdorini ularning reja va bazis miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Intensiv foydalanish koeffitsienti bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi bilan o'lchanadi. Uni aniqlash uchun bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini rejadagi mahsulot bilan aniqlanadi.

Asosiy fondlardan (Af) foydalanish samaradorligi darajasidan umumiy holda ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy fondlardan qanchalik ko'p foydalanilsa, shunchalik ko'p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: Af mahsulodorligi, Af rentabelligi, mashina va uskunalarning quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kiradi.

Asosiy fondlar fond mahsulodorligi tahlil qilinayotgan davrda (odatda, bir yilda) ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida quyidagi formula orqali topiladi:

$$Af_m = \frac{M}{Af_o'r} \quad (1.5)$$

Bu yerda:

Af_m – asosiy fond mahsuldorligi;

M - tahlil qilingan davrda ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulot hajmi;

$Af_o'r$ - asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Qurilish sohasida xo'jalik yurituvchi subektlarning asosiy fondlarga anchagina mablag'lari jalb qilingan bo'ladi. Mazkur mablag'larning qaytimi asosiy fondlardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi. Asosiy fondlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

- asosiy fondlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy fondlar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy fondlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Asosiy fondlarning holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash lozim. Unda bazis davri ma'lumotlari haqiqiy malumotlar bilan taqqoslanib, o'zgarishlarning yaxshilangani yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi, ko'rsatkichlarni yaxshilanishi uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Asosiy fondlar iqtisodiy tuzilishini va holatini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Asosiy fondlarning samaradorlik ko'rsatkichlari korxona xo'jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida olinadi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish vositalari qaytimi - mahsulot hajmini ishlab chiqarish foddari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Mashina va uskunalar qaytimi - mahsulot xajmini mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish fondlari sig'imi - ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymatini mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Mashina va uskunalar sig'imi- mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymatini mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Korxona ishlab chiqarish quvvati deganda - uning to'la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga, balki uning harajatlar tarkibiga, moliyaviy natijasiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qoraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tahliliga quyidagilarni xarakterlash mumkin:

- korxona ishlab chiqarish quvvatlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi tahlili;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning qiyosiy tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxona harajatlariga ta'sirining tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxona ishlab chiqarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'sirining tahlili.

Asosiy fondlar har bir sikldan so'ng ishlab chiqarish sohasini tark etmay, mehnat jarayonida o'z natura ashyoviy shaklini saqlab qolishi bilan tavsiflanadi. Ularning qiymati mahsulotga bir yo'la emas, balki qismlab o'tadi. Ammo shunday narsalar ham borki, ular o'z iqtisodiy belgilariga ko'ra mehnat quroli hisoblanadi, ammo, asosiy fondlar tarkibiga kiritilmaydi, balki aylanma mablag'lar tarkibida hisobga olinadi. Bularga, jumladan, qiymatidan qa'tiy nazar, bir yildan kam muddat ishlatiladigan tez eskiradigan buyumlar va qiymati xizmat muddatidan qa'tiy nazar tegishli vazirliklar va idoralar 100 tagacha eng kam oylik maosh doirasida belgilaydigan limitdan kam bo'lgan buyumlar kiritiladi.

1.3.Qurilish korxonasi miqyosida asosiy fondlardan foydalanish

ko'rsatkichlari

Asosiy fondlar tuzilmasi tarmoq ixtisosligidan kelib chiqib aniqlanadi va korxonaning ishlab chiqarish hamda texnik ta'minoti xususiyatlarini aks ettiradi. U korxona asosiy fondlari umumiy summasida va ishlab chiqarish, aktiv va passiv qismining hajmiga hamda ularning yil mobaynidagi o'zgarishlari va dinamikasiga bog'liqdir. Mazkur ko'rsatkichlar asosida korxona tuzilmalari bo'yicha asosiy fondlar samaradorligi, texnik jihozlanishining darajasi, qo'l mehnati kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Asosiy fondlar tuzilmasini hisob-kitob qilish uchun 3-sonli "Asosiy fondlar harakati to'g'risida"gi hisobot ma'lumotlari qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlarni asosiy fondlar holatining yaxshilanish (yomonlashish) sabablarini aniqlagan holda dinamikasini o'rganib hisob-kitob qilish zarur. Asosiy fondlar boshlang'ich qiymatining qoldiq qiymatiga nisbatan keskin o'sishi koeffitsientlarda eskirish ko'payganligi va ular yaroqliligi kamayganligini, ya'ni holati yomonlashganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda qurilishni texnikalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Asosiy fondlarning ko'p qismini transport vositalari va ba'zi korxonalarda esa lizingga olingan asosiy fondlar tashkil etadi. Qurilishda transportning hissasi juda katta ahamiyatga ega. Hamma qurilish uchun zarur bo'lgan resurslar, jihozlar transport orqali qurilishga olib kelinadi.

Korxona balansida boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olinadigan asosiy fondlar hajmi turli davrlarda shu davr narxlarida ishlab chiqarilgan va xarid qilingan ob'ektlar qiymati to'g'risida jamlangan ma'lumotlardir. Bu turli korxonalar asosiy fondlari ko'rsatkichlarini taqqoslashda, asosiy fondlardan foydalanishni tahlil qilishda va shu kabilarda qiyinchiliklar tug'diradi.

Asosiy fondlar to'g'risida fikr yuritilganda mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar ham alohida hisobga olinadiki, ular

ham asosiy fondlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi;
- fond qaytimi (sig'imi) ning o'zgarishi.

Fond qaytimi (sig'imi)ning o'zgarishiga ham bir necha ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bular:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi;
- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Asosiy fondlar qiymatining yillar hisobi bo'yicha ma'lum koeffitsientlar bilan baholanishi ham ularning qiymatini o'zgarishiga ta'sir etadi. Asosiy fondlarni baholashning boshlang'ich, tiklash, qoldiq qiymati turlari farqlanadi.

Boshlang'ich qiymat sotib olish(yoki qurish), korxonaga etkazib kelish va o'rnatish (montaj) harajatlarini, ya'ni ularni tayyorlash yoki xarid qilish vaqtidagi qiymatini o'z ichiga oladi.

Tiklash qiymati O'zbekiston Respublikasi hukumatining "Korxonalar va tashkilotlar bo'yicha asosiy fondlarni qayta baholash to'g'risida"gi Qarori asosida aniqlanadi.

Qoldiq qiymat asosiy fondlarning dastlabki qiymatidan eskirish summasini ayirish orqali ega bo'lingan farqdir.

$$Af_{qol,qiy} = Af_{das,qiy} - Af_{esk,sum} \quad (1.6)$$

Bu yerda:

$Af_{das,qiy}$ - asosiy fondlarning dastlabki qiymati

$Af_{esk,sum}$ - asosiy fondlarning eskirish summasi

Qoldiq qiymat asosiy fondlar ma'lum muddat ishlatilgandan so'ng ularda saqlangan qoplanmagan qiymat miqdorini ifodalaydi.

Moliyaviy hisobotda dastlabki qiymat, eskirish summasi va qoldiq qiymat buxgalteriya balansida aktivning 1- bo'limida ko'rsatiladi.

Amaldagi “Buxgalteriya hisobi va hisoboti to’g’risidagi Nizom”ga muvofiq O’zbekiston Respublikasi korxonalari asosiy fondlarni hisobda dastlabki qiymati bo’yicha aks ettiradi. Tiklash qiymati dastlabki qiymat sifatida hisobga olinadi.

Asosiy fondlardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Asosiy fondlarning samaradorlik ko’rsatkichlari korxona xo’jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko’rsatkichlaridan biri sifatida olinadi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ishlab chiqarish fondlari qaytimi:

$$Ish.chiq_{fq} = \frac{Mah.hajmi}{Ish.chiq_{f.or.qiy}} \quad (1.7)$$

Bu yerda:

Mah.hajmi - mahsulot hajmi;

Ish.chiq_{f.o’r.yil.qiy} - ishlab chiqarish fondlari o’rtacha yillik qiymati.

2. Mashina va uskunalar qaytimi:

$$Mash.usk_{qay} = \frac{Mah.hajmi}{Mash.usk_{or.qiy}} \quad (1.8)$$

Bu yerda:

Mah.hajmi - mahsulot hajmi;

Mash.usk_{o’r.yil.qiy} - mashina va uskunalar o’rtacha yillik qiymati.

3. Ishlab chiqarish fondlari sig’imi:

$$Ish.chiq_{qay} = \frac{Ish.chiq_{f.or.qiy}}{Mah.hajmi} \quad (1.9)$$

Bu yerda:

Ish.chiq_{f.o’r.yil.qiy} - ishlab chiqarish vositalari o’rtacha yillik qiymati;

Mah.hajmi - mahsulot hajmi.

4. Mashina va uskunalar sig’imi:

$$Mash.usk'_{sig} = \frac{Mash.usk_{o'r.yil.qiy}}{Mah.hajmi} \quad (1.10)$$

Bu yerda:

Mash.usk_{o'r.yil.qiy} - mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati;

Mah.hajmi - mahsulot hajmi.

Korxona ishlab chiqarish quvvati deganda, uning to'la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga, balki uning harajatlar tarkibiga, moliyaviy natijasiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Qoldiq qiymatining boshlang'ich qiymatga nisbatan keskin o'sishi asosiy fondlar yangilangan, ularning eskirishi qisqarganidan dalolat beradi. Eskirishni kamaytirish, ya'ni asosiy fondlar holatini yaxshilash usullaridan biri - o'z vaqtida kapital ta'mirlash, yangilarini xarid qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni hisobdan chiqarishdan iboratdir. Bu tadbirga bozor munosabatlari sharoitida alohida ahamiyat berish kerak.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik korxonaning texnik jihatdan ta'minlanganligi, mehnat va ishlarning mexanizatsiyalashganligini koeffitsientlar orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar hisoblanib, ular yordamida har bir korxonaning moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash mumkin.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining (boshlang'ich baholanishi bo'yicha) smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy fondlar) bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettirib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kf.t = \frac{Af}{Is} \quad (1.11)$$

Bu yerda:

$Kf.t$ - fond ta'minlanganligi koeffitsienti;

Af - asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati;

Is - smenadagi ishchilar soni.

Tahlil qilish uchun 3-shakl (moliyaviy hisobot) va 1-T shakl (statistik hisobot)dan ma'lumotlar olinadi. Korxonada ish bir necha smenada tashkil etilsa, eng kattasidagi ishchilar soni buxgalteriya yoki ish haqi oluvchilari ro'yhatlaridan olinadi, chunki hisobotda ular bo'lmasligi mumkin. Ish bir smenada tashkil qilingan bo'lsa, barcha asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar olinadi.

Texnik ta'minlanganlik koeffitsienti ($Kt.t$) ishlab chiqarish uskunalari summasi (ya'ni, asosiy fondlar aktiv qismi)ning eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbati sifatida hisoblanib, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Kt.t = \frac{I.u.s}{Is} \quad (1.12)$$

Bu yerda:

$I.u.s$ - ishlab chiqarish uskunalari summasi;

Is - ishchilar soni.

Ishlarning mexanizatsiyalashganlik koeffitsienti mexanizatsiya orqali bajarilgan ishlarga sarflangan vaqtning umumiy sarflangan vaqtga nisbati sifatida aniqlanadi. Shuning uchun mehnat mexanizatsiyasi koeffitsientlarini hisoblash uchun ma'lumotlar tanlanib kuzatish yordamida yoki uni ekspertlar orqali aniqlash mumkin.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini o'tgan yil va bir necha yil bilan taqqoslab, o'zgarishlar qonuniyatlari, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va qo'l mehnati yengillashishiga ta'siri haqida tegishli xulosa chiqarish mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida sotilgan mahsulot hajmi xo'jalik faoliyatini to'la hajmda aks ettiradi. Foyda va rentabellik kabi korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham ushbu ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun asosiy fondlar mahsuldorligini ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha emas, sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha aniqlash to'g'ri bo'ladi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Afm = \frac{S}{Afo'r} \quad (1.13)$$

Bu yerda:

S - sotilgan mahsulot hajmi;

$Afo'r$ - asosiy fondlar o'rtacha qiymati.

Shuni ham hisobga olish lozimki, asosiy fondlar oyning 15-kunigacha kiritilsa yoki hisobdan chiqarilsa, bu oy o'rtacha yillik summasi hisob-kitobiga kiradi; agar 15-kundan keyin xarid qilingan yoki sotilgan bo'lsa, bu oy hisob-kitobiga kirmaydi.

Asosiy fondlar rentabelligi asosiy fondlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. U sof foydaning asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$Raf = \frac{SF \cdot 100}{Afo'r} \quad (1.14)$$

Bu yerda:

Raf - asosiy fondlar rentabelligi;

SF - sof foyda.

Asosiy fondlar quyidagi holatlarda ularni tugatish munosabati bilan balandsan chiqarilishi mumkin:

- a) belgilangan xizmat muddati tugaganidan (to'liq eskirish hisoblanganidan);
- b) jismoniy eskirish, falokatlar, tabiiy ofatlar, foydalanishning risoladagi shart-sharoitlari buzish oqibaida yaroqsiz holga kelganlari;

v) ma'nan eskirganlari, ya'ni ma'nan eskirgan asosiy fondlar-huddi shu maqsadda asosiy vositalarning yqnada unumdor va tejamkor pullarini ishlab chiqish natijasida qadrsizlanadigan asosiy fondlar;

g) tegishli davlat idoralari va organlarining qarorlari bo'yich chiqib ketadiganlari;

d) korxona va tashkilotlarning qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, zamonaviylashtirilishi va texnik qayta jihozlanishi munosabati bilan chiqib ketadiganlari.

Balans ma'lumotlariga asoslanib, quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin:

1. Asosiy fondlar harakatni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

a) asosiy fondlarni yangilash ko'rsatkichlari:

$$K_{yan} = \frac{Af_{yk}}{Af_{y.ox.qiy}} * 100 \% \quad (1.15)$$

Bu yerda:

Af_{yk} – yangidan kiritilgan asosiy fondlar qiymati;

$Af_{y.ox.qiy}$ – asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati.

b) asosiy fondlarning chiqib ketish ko'rsatkichi:

$$K_{chiq} = \frac{Af_{chk}}{Af_{y.bosh.qiy}} * 100 \% \quad (1.16)$$

Bu yerda:

Af_{chk} - chiqib ketgan asosiy fondlar qiymati;

$Af_{y.bosh.qiy}$ - asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati.

2. Asosiy fondlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar

a) asosiy fondlarning eskirish ko'rsatkichi:

$$\tilde{E}_{yas} = \frac{E}{F} * 100 \% \quad (1.17)$$

Bu yerda:

E – eskirish summasi.

$$K_{yaroq} = \frac{F'}{F} 100 \% \quad (1.18)$$

Bu yerda:

F' – asosiy fondlar qoldiq qiymati.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish dinamikasi tahlilida asosiy fondlarni yangilash intensivligi ko'rsatkichi qo'yidagicha hisoblanadi:

$$\bar{E}_{yan} = \frac{Af_{ch.k.qay}}{Af_{y.k.qay}} \cdot 100 \% \quad (1.19)$$

Bunda chiqib ketgan va yangidan kiritilgan asosiy fondlar qiymati, balans qiymati bo'yicha olinadi.

Eskirish ko'effitsienti (K_{esk}) eskirish summasining asosiy fondlar boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{esk} = \frac{Af_{esk}}{Af_{bosh.qiy}} \quad (1.20)$$

Bu yerda:

Af_{esk} - asosiy fondlarning eskirish summasi;

$Af_{bosh.q}$ - asosiy fondlar boshlang'ich qiymati.

Asosiy fondlar yaroqsizlik ko'effitsienti (K_{yar}) qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi boshlang'ich qiymat) boshlang'ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{yar} = \frac{Af_{q.q}}{Af_{bosh.qiy}} \quad (1.21)$$

Bu yerda:

$Af_{q.k}$ - asosiy fondlarning qoldiq qiymati;

$Af_{bosh.q}$ - asosiy fondlar boshlang'ich qiymati.

Yangilanish koeffitsienti (K_{yan}) bir yil mobaynida yangi kelgan asosiy fondlarning yil oxiridagi ular qoldig'iga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{yan} = \frac{Af_{yan.q}}{Af_{d.o.bosh.qiy}} \quad (1.22)$$

Bu yerda:

$Af_{ya.q}$ - yangi kelgan asosiy fondlar summasi;

$Af_{d.o.bosh.q}$ - asosiy fondlarning davr oxiridagi boshlang'ich qiymati;

Hisobdan chiqarish koeffitsienti yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{His.chiq} = \frac{Af_{chiq}}{Af_{bosh.qiy}} \quad (1.23)$$

Bu yerda:

$Af_{ch.}$ - yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar

$Af_{bosh.q}$ - asosiy fondlar boshlang'ich qiymati.

Iqtisodiy statistik tahlilda asosiy fondlardan qay darajada foydalanilganligi muhim ahamiyatga ega, buning uchun sarf etilgan asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymati bilan yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori taqqoslanadi.

Fond samaradorligi:

$$n = \frac{Q}{F} \quad (1.24)$$

Bu yerda:

Q – mahsulot miqdori;

F – o'rtacha yillik asosiy fondlar qiymati;

Bu ko'rsatkich har bir so'mlik sarf etilgan asosiy fondga qancha qaytim, mahsulot miqdori olinganligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichning teskarisi Fond sig'imi ko'rsatkichi bo'lib, har bir so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulotga qancha asosiy fondlar sarflanganligini ko'rsatadi.

$$L = \frac{F}{Q} \quad (1.25)$$

Mavjud asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini, korxonada band bo'lgan o'rtacha yillik xodimlar soniga nisbati esa $\frac{F}{O}$, ya'ni har bir o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soniga qancha asosiy fond to'g'ri kelishini ifodalaydi.

I bob bo'yicha xulosa

Asosiy fondlar ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining asosi hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va mehnatning texnik jihatdan qurollanish darajasi asosiy fondlarga bog'liq bo'ladi. Bino, inshoot, mashina, qurilma, asbob-uskuna va boshqa mehnat vositalaridan iborat bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt mobaynida ishtirok etib, naturashaklini saqlab qoladi hamda ularning qiymati ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekinlik bilan qismlarga bo'lib o'tkaziladi.

Qurilish korxonasining ishlab chiqarish quvvati – bu, ishlab chiqarishning barcha zahiralardan foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmidir.

Ekspluatatsiya jarayonida asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy eskirishga uchrab, bu korxona uchun ma'lum bir yo'qotishlarni keltirib chiqaradi.

Asosiy fondlarning eskirishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni, ulardan foydalanishini yaxshilash, fond qaytimi, smenalik koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kabi asosiy ko'rsatkichlar darajasini oshirish yordamida kamaytirish mumkin.

Bu ko'rsatkichlarni fan-texnika taraqqiyoti hisobiga, asosiy fondlar tuzilmasini mukammallashtirish, uskunalar bekor turib qolishini kamaytirish, mehnat va ishlab

Bugungi kunda 50 dan ortiq ishchi-xizmatchi xodimlar o'z ish faoliyatlarini shu tashkilot bilan bog'laganlar. Jamiyat aniq belgilab olingan Nizomda ko'zda tutilgan tartiblarga qat'iy amal qilgan holda, bir qator o'rnatilgan ichki qonun-qoidalar bilan o'z faoliyati davomida ish olib boradi:

- ko'proq foyda olish, korxona raqobatbardosh bo'lishi, rentabellik va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish uchun avvalo mehnat qiluvchilar jamoasini zaruriy shart-sharoitlar bilan ta'minlash, rag'batlantirish ishlarini muntazam amalda qo'llash;

- tashkilot ish faoliyatini doimiy tizimli tahlil etib borish, olingan natijalar asosida amaliy xulosalar olish va ish jarayonida qo'llash;

- yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish, samarali mexanizm va uskunalardan foydalanish;

- belgilangan texnik qoidalar, qonunlar, qarorlar va yo'riqnomalar asosida asosiy fondlarni tegishli tartibda o'rnatish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq ta'mirlash ishlari ustidan doimiy nazorat olib borish;


- jamiyatning iqtisodiy holatiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi moliyaviy va iqtisodiy ta'sirlarni o'rganish, faoliyat davomida to'g'ri siyosat yuritish, daromadni oshirish yo'llarini izlab topish;

- xo'jalik yuritishning yangi va zamonaviy usullaridan tashkilot miqyosida keng foydalanib, ishchilarni ma'naviy dam olishlari yuzasidan yangiliklar joriy etish.

“Stil-life-servis” MChJ ning boshqaruv strukturasi ma'muriyat va bir nechta katta bo'limlardan tashkil topgan (2.1-rasm). Ushbu bo'limlar ham o'z ishining ko'lami va ahamiyatiga ko'ra yana kichik guruhlariga bo'linadi. Bunday guruhlardan eng yirik va ko'proq ahamiyat talab etadiganlaridan biri bu qurilish ishlarini amalga oshiruvchi ishlab chiqarish bo'limidir. Bu bo'lim quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi:

1. Qurilishni loyihalashtirish guruhi;
2. Qurilish-montaj ishlarini bajarish guruhi;;

3. Maxsus montaj qilish guruhi;
4. Pardoqlash guruhi;
5. Santexnika ishlarini amalga oshiruvchi guruh;
6. Binolarni jihozlash guruhi (eksterior va interior dizaynerlari birgalikda);
7. Mashinistlar guruhi.



2.1-rasm. “Stil-life-servis” MChJ ning boshqaruv strukturasi.

Hozirgi kunda “Stil-life-servis” MChJ katta-katta inshootlarni “Pod klyuch” ya’ni “Kalitini topshirish” bo’yicha ham o’z ish uslubiga ega. Bunday usul inshootlarni loyihalashtirish, qurish va jihozlash ishlari ya’ni, buyurtmachining talabiga ko’ra binoni jihozlarini bilan birga tayyor holda binoning kalitini topshirish deganidir. Bu esa o’z o’rnida buyurtmachi uchun eng qulay va har tomonlama samaralidir. Ish uslubini tahlil qilganda, har bir ish qilinishidan avval har tomonlama chuqur o’rganilgan holda amalga oshirish zaruriyati dolzarb masala bo’lib hisoblanadi. Chunki bino-inshootlarni qurilishida biror xatoga yo’l

qo'yish mumkin emas. Sarflanayotgan harajatlar ham tejamkorlik nuqtai nazarida amalga oshiriladi. Bu esa ishning sifati va unumli bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizning bu bobida korxona balans hisobotlari, moliyaviy natijalar haqidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot, korxona tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari smeta qaydlari asosida asosiy fondlarning harakatini, ular bilan bog'liq o'zgarishlar, eskirishi hamda yil mobaynida qayta baholashi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlil etamiz.

2.1-jadval. "Stil-life-servis" MChJ ning 2012-2014-yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012-yil	2013-yil	2014-yil
1	Sotishdan tushum	ming so'm	336054	3235304	9047021
2	Bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxi	ming so'm	1 847 507,0	2 528 970,0	2 584459
3	Yalpi foyda	ming so'm	57 195,0	651 75,4	706 33,4
4	Foydadan soliq	ming so'm	77 830,0	484 949,0	535 344,0
5	Ishchilarning o'rtacha soni	Kishi	13	39	47
6	Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot	ming so'm	2585,03	8295,65	407,5
7	Sof foyda	ming so'm	407 119, 0	4 849 490,0	5 353 440
8	Ish haqi fondi	ming so'm	6 748,0	63 428,0	81 810,0
9	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi	ming so'm	519,0	1626,35	1740,64
10	Debitorlik qarzlari	ming so'm	3 360,0	1 224 362,0	1 347 992
11	Kreditorlik qarzlari	ming so'm	7676,41	2 214 248,0	1 745 014

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra MChJ "Stil-life-servis" ning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan, sotishdan tushgan tushum 2012-yilda 336054 ming so'mni, 2013-yilda 3235304 ming so'mni, 2014-yilda esa bajarilgan ishlarning avvalgi yilga nisbatan ulushi oshganligi hisobiga 9047021 ming so'mga ko'paygan. Bajarilgan ishlarning tannarxi 2012-yilda 1 847 507 ming so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013-yilda 2 528 970 ming so'mni, 2014-yilda esa 2 584 459 ming so'mni tashkil qilgan. Sof foyda 2012-yilda 407 119 min so'mni ko'rsatgan bo'lsa, 2013-yilda ish vaqti fondi oshishi hisobiga 63 428 ming so'mga oshgan. 2014-yilda ham sof foyda 81 810 ming so'mni tashkil etgan holda avvalgi yilga nisbatan ortgan. Debitorlik qarzlari 2012-yilda 3 360 ming so'mni, 2013-yilda 224 362 ming so'mni, 2014-yilda esa 347 992 ming so'm ko'rsatkich bilan keltirilgan. Kreditorlik qarzlari esa 7676,41min so'mni, 2013-yilda 214 248 ming so'mga ortgan. 2014-yilda qarzdorlik 745 014 ming so'mni tashkil etgan.

2.2. 2012-2014-yillarda "STIL-LIFE SERVIS" MChJ ning asosiy fondlari tarkibi va ularning harakati tahlili

Qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarining tarkibi boshqa tarmoqlardagidan uncha katta farq qilmagan holda asosiy, katta qismini transpotr vositalari (ko'tarma kranlar, samosval, kamaz va h.k.) tashkil etadi. Asosiy fondlarining hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvatini belgilaydi. Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish faoliyatini asoslashda katta rol o'ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomeklaturada va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potensial imkoniyatlarini tavsiflaydi.


Qurilish korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlarida aktiv va passiv asosiy fondlarga ajratiladi. Asosiy fondlarning umumiy hajmida aktiv va passiv guruhlarining miqdori bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar bo'yicha tarkibini ko'rsatib, uning ulushi foizlarda o'lchanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari

tuzilmasida, aktiv fondlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ulushini ko'paytirish va tarkibini yangilab borish korxona faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish natijasida ko'proq foyda olishda muhim vosita hisoblanadi.

2.2-jadval. Korxonaning mavjud aktiv va passiv asosiy fondlari tahlili.

Davr	Aktiv asosiy ishlab chiqarish fondi		Passiv asosiy ishlab chiqarish fondi	
	Balansdagi ulushi mln.so'mda	Balansdagi ulushi % hisobida	Balansdagi ulushi mln. so'mda	Balansdagi ulushi % hisobida
2012-yil	146,7	66,5	73,8	33,46
2013-yil	1104,2	93,73	73,8	6,27
2014-yil	1834,3	93,38	129,9	6,61

Jadval ma'lumotlarini diagramma ko'rinishida tahlil etadigan bo'lsak uni quyidagicha tasvirlaymiz. Ushbu diagrammada korxonaning asosiy fondlari aktiv va passiv guruhlarining dinamik tarkibi keltirilgan.



2.1

-diagramma. "STIL-LIFE SERVIS" MChJning asosiy fondlarining dinamik tarkibi.

1-diagrammadan ko'rinib turibdiki, korxonaning asosiy faoliyatida 2012-yil, 2013-yil va 2014-yilda ham asosiy o'rinni aktiv asosiy fondlar tashkil etadi. 2013-yilga nisbatan 2014-yilda passiv asosiy fondlar 6,27 %dan 6,61%ga oshgan. Aktiv fondlar ham ish ko'lamining kengayishi hisobiga 66,5%dan 93,38ga oshgan.

“STIL-LIFE SERVIS” MChJ ning 2012-2014-yillar mobaynida belgilangan Nizom(ustav)iga asosan tashkilot balansiga kiritilgan asosiy fondlar tarkibi 2.3-jadvalda ko'rsatilgan.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxona asosiy fondlarining asosiy qismini transport vositalari va mashina-uskunalar tashkil etmoqda. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda qurilishni texnikalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qurilishda transportning hissasi juda katta ahamiyatga ega. Hamma qurilish uchun zarur bo'lgan resurslar, jihozlar transport orqali qurilishga olib kelinadi. Asosiy fondlardagi ulushi 2012-yilda 220,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 43,4 foizga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. 2014-yilga kelib asosiy fondlarning balansdagi ulushi 59,9 foizga oshgan.

Jadvalda keltirilgan asosiy fondlar yillar bo'yicha taqsimlangan bo'lib, har biri o'zining korxona balansiga kiritilgan yili bo'yicha 3-sonli “Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot” ma'lumotlaridan olingan.

2.3-jadval. Korxona asosiy fondlari tarkibi.

№	Asosiy fond nomi	Markasi	Ishlab chiqarilgan yili	Narxi (mln.so'm)	Soni	Balansga kiritilgan yili
2012-yil						
1	Samosval	HOWO Sinatruch 322	2009	120,2	1	2012
2	Samosval10 tn	Kamaz K54310	1995	26,5	1	2012
3	Qurilish vagoni	-	2006	12,3	6	2012
2013-yil						
4	Traktor	TTZ T40	1997	20,0	1	2013
5	Samosval	HOWO	2012	281,5	2	2013

6	Beton aralashtirgich	HOWO	2012	276,1	1	2013
7	Samosval 5tn	ISUZI	2011	98,4	1	2013
2014-yil						
8	Avtokran 30 tn	ИБОХОБЕЦ	2013	550,0	1	2014
9	Yuk ko'tarish mashinasi	HGMK	2011	160,0	1	2014
10	Avtomashina Lacetti	CDX A/TC 601 AJ3 RRKB18	2011	56,1	1	2014
11	Ekskavator ob.kovsh 0,65m3	IOM3	2006	20,1	1	2014
JAMI:		-	-	1 964,2	-	-

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, 3-sonli hisobot Moliya Vazirligining Qaroriga muvofiq 2013-yildan bekor qilingan. Ammo tadqiqot ishimizning aniq yakuniy xulosasiga erishish maqsadida ushbu hisobotni tuzib, tadqiqot ishiga ilova qilindi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari harakati tahlili uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish zarur bo'ladi:

1. Ishga tushirish koeffitsienti (Kish.tush):

$$\text{Kish.tush} = \text{Asosiy fondning boshlan.qiymati} / \text{asosiy fondning davr oxiridagi qiymati}$$

2. Tugatish koeffitsienti (Ktug):

$$\text{Ktug} = \text{Asosiy fondni tugatish qiymati} / \text{asosiy fondning davr boshidagi qiymat}$$

3. O'sish koeffitsienti (Ko's):

$$\text{Ko's} = \text{Asosiy fondni o'sish summasi} / \text{asosiy fondning davr boshidagi qiymati}$$

Berilgan ma'lumot ko'rsatkichlarni hisoblash uchun korxona balansida mavjud asosiy fondlar harakati bilan bog'liq qismini tahlil etamiz:

Davr oxiriga kelib asosiy fondlarni qayta baholash quyidagicha aniqlanadi:

$$AFo = AFb + AFk - AFch$$

Bu yerda:

AFO va AFb - asosiy fondlarning davr boshiga va davr oxiriga nisbatan qiymati;
AFk va AFch - asosiy fondlarning joriy davrga nisbatan hisobga kiritilgan va hisobdan chiqarilgan qiymati.

2.4-jadval. “STIL-LIFE SERVIS” MChJ balansida mavjud va harakatdagi asosiy fondlari.

Davr	Asosiy fond turlari	Davr boshida mavjud bo'lgan (mln.so'm)	Joriy davrda kiritilgan (mln.so'm)	Davr oxiriga mavjud bo'lgan (mln.so'm)
2012-yil	Jami	146,7	-	220,5
	Shundan: Aktiv AF	146,7	-	146,7
	Passiv AF	-	73,8	73,8
2013-yil	Jami	220,5	957,5	1178
	Shundan: Aktiv AF	146,7	957,5	1104,2
	Passiv AF	73,8	-	73,8
2014-yil	Jami	1178	786,2	1964,2
	Shundan: Aktiv AF	1140,2	730,1	1834,3
	Passiv AF	73,8	56,10	129,9

2.4-jadval ma'lumotlariga asosan asosiy fondlarning davr boshiga nisbatan qiymati 2012-yilda 146,7 mln so'm, davr oxiriga nisbatan esa 220,5 mln. so'mga

oshgan. 2013-yilda esa yil mobaynida bajarilgan ishlar hisobiga va orttirilgan foyda evaziga asosiy fondlar ko'paygan ya'ni, yil boshiga nisbatan bu ko'rsatkicha 220,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib anchayin yuqori 87.5 % ko'rsatkich bilan 1178,0 mln.so'mni tashkil etgan. 2014-yilda ham sezilarli hisob bilan 1178,0 mln.so'mdan 1964,2 mln.so'm ko'rsatkich bilan korxonaning rentabellik darajasi ko'tarilayotganini ko'rsatmoqda.

Asosiy fondlarning davr boshiga va davr oxiriga nisbatan qiymat ko'rsatkichlariga muvofiq asosiy fondlar qiymatining o'sish tezligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta AF = AF_o - AF_b$$

$$\Delta AF_{2012} = 220,5 - 146,7 = 73,8 \text{ mln.so'm}$$

$$\Delta AF_{2013} = 1178 - 220,5 = 957,5 \text{ mln.so'm}$$

$$\Delta AF_{2014} = 1964,2 - 1178 = 786,2 \text{ mln.so'm}$$

Olingan natijalardan ko'rinib turganidek, 2012-yilda asosiy fondlarning o'sish tezligi sur'ati 2014-yilda 73,8 mln.so'mdan 786,2 mln.so'mga oshganini kuzatishimiz mumkin.

Balansga kiritilgan asosiy fondlarning harakatiga oid ma'lumotlarga asosan asosiy fondlar harakati ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin, ko'rsatkichlar yuqori yoki aksincha ekanligini quyidagi 2.5, 2.6 va 2.7 – jadval ma'lumotlarini solishtirish orqali natijalarga nisbatan aniqlashimiz mumkin.

2.5-jadval. 01.01.2013-yil holatiga asosiy fondlarning qayta baholash natijasida olingan ko'rsatkichlar (mln.so'm)

No	Asosiy fond nomi	shlab chiqarilgan yili	Narxi (mln. so'm)	So-ni	Hisobga olingan yili	01.01.2013-yil holatiga Aflarning qayta baholash indekslari	Qayta baholash natijasi-da oshgan summasi	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflar ning qayta baholash natijasi da oshgan summasi
1	Samosval	2009	120,20	1	2012	1,113	13,58	13,58	133,78
2	Samosval 10 tn	1995	26,50	1	2012	1,079	2,09	2,09	28,59
3	Qurilish vagoni	2006	73,80	6	2012	1,113	8,34	8,34	22,14
JAMI		-	220,5	8	-	-	24,01	24,01	244,5

Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash har yili (joriy yilning 1-fevraligacha 01-yanvar holati bo'yicha qayta baholashni o'tkazish davrida narxlar darajasidan kelib chiqib o'tkaziladi. "1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomda asosiy fondlar qiymatini qayta baholashning ikki usuli nazarda tutilgan:

- asosiy fondlar turlari bo'yicha va ularni xarid qilish davrlariga bog'liq holda tabaqalashtirilgan, asosiy fondlar qiymatining o'zgarish indekslarini qo'llagan holda ayrim fondlarning dastlabki(tiklash) qiymatini indeksatsiyalashgash usuli;

- qayta baholashni o'tkazish davrida 1-yanvar holatiga kelib shakllangan, baholanilayotganlariga aynan o'xshash yangi ob'yektlarga hujjat bilan tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha ayrim ob'yektlarning qiymatini bevosita qayta baholash usuli.

2.5-jadvalda 2012-yilda korxona balansiga kiritilgan asosiy fondlar ma'lumotlari keltirilgan. Unga ko'ra ushbu yilda aktiv asosiy fond sifatida 146.7 million so'mlik 2 turdagi transport vositasi kiritilgan bo'lsa, passiv asosiy fond o'rnini 73,8 million so'mni tashkil etuvchi qurilish vagoni egallab turibdi. Passiv asosiy fondlar qurilish ishlab chiqarishida ishtirok etmasada, quruvchi va ishchilar uchun vaqtinchalik turarjoy vazifasini bajaradi. 2012-yilda balansga kiritilgan asosiy fondlar 2013-yil 1- yanvar holati bo'yicha qat'iy o'rnatilgan qayta baholash idekslari asosida qayta baholanadi.

Masalan, ushbu yilda aktiv asosiy fondlarning qayta baholanadigan qismi uchun belgilangan koeffitsient turlar bo'yicha 1,113 ($120,2 \cdot 1,113 = 133,78$ mln.so'm) va 1,079 ($26,5 \cdot 1,079 = 28,59$ mln.so'm) ni tashkil etgan bo'lsa, passivlari esa 1,113 koeffitsient bo'yicha hisoblangan ($(12,3 \cdot 6) \cdot 1,113 = 82,14$ mln.so'm). Hisoblashlar natijasida yuqoridagi asosiy fondlarning qayta baholash natijasida oshgan summasi aktivlar bo'yicha 15,67 mln.so'mga, passivlar bo'yicha 8,34 mln.so'mga oshgan. Asosiy fondlarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi 2012-yil mobaynida 24,01 mln.so'mga teng bo'lgan. Asosiy fondlarning qayta baholash natijasida oshgan umumiy summasi 220,5 mln.so'mdan 244,51 mln.so'mni tashkil etgan.

2.6-jadvalda “STIL-LIFE-SERVIS” MChJ ning 2014-yil 1-yanvar holatiga 2013-yilda qayta baholangan va 2013-yilda korxona balansiga kiritilgan asosiy fondlar ma’lumotlari keltirib o’tilgan. Unga ko’ra korxonaning ustav kapitali asosida va bajarilgan ishlardan olingan taqsimlanmagan foyda hisobidan jami 957,5 million so’mlik asosiy fond kirim qilingan. Natijada asosiy fond ko’rsatkichi 87,5 %ga oshgan. Ammo ushbu yilda faqatgina qo’shimcha 4 turdagi aktiv asosiy fond sotib olingan. Qayta baholanilayotgan asosiy fondlarning oldingi yilgilari bu yil 1,113 koeffitsientdan 1,097 ga, 1,079 esa 1,007ga o’zgargan. Sababi har yili ularning eskirishi ham alohida hisobga olinishi natijasida indeks ko’rsatkichlari ham tushib boraveradi. 2013-yil holatiga jami 1153,1 mln.so’mlik asosiy fond qayta baholash uchun kirim qilingan bo’lsa 2014-yil 1-yanvar holatiga ushbu asosiy fondlarning qayta baholash summasi 1280,68 million so’mga oshgan. Qayta baholash natijasida oshgan summasi 127,57 million so’m bo’lgan bo’lsa, asosiy fondlarning ekspluatatsiya qilingan kundan ya’ni balansga kiritilgan vaqtdan e’tiboran jami qayta baholash natijasida oshgan summasi 144,63 million so’mga oshgan.

2.6-jadval. 01.01.2014-yil holatiga asosiy fondlarning qayta baholash natijasida olingan ko'rsatkichlar (mln.so'm)

No	Asosiy fond nomi	Ishlab chiqarilgan yili	Narxi	Soni	Hisobga olingan yili	01.01.2014-yil holatiga qayta baholash indekslari	Qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning qayta baholash natijasida oshgan summasi
1	Samosval	2009	107,03	1	2012	1,097	10,38	23,96	117,41
2	Samosval 10 tn	1995	22,87	1	2012	1,007	0,16	2,25	23,03
3	Qurilish vagoni	2006	65,71	6	2012	1,097	6,37	7,76	72,08
4	Traktor	1997	20,00	1	2013	1,063	1,26	1,26	21,26
5	Samosval	2012	563,0	2	2013	1,119	67,00	67,00	630,0
6	Beton aralashtirgich	2012	276,0	1	2013	1,119	32,86	32,86	308,96
7	Samosval 5tn	2011	98,40	1	2013	1,097	9,54	9,54	107,94
JAMI:			1153,11	13	-	-	127,57	144,63	1280,68

2.7-jadval. 01.01.2015-yil holatiga asosiy fondlarning qayta baholash natijasida olingan ko'rsatkichlar (mln.so'm)

Asosiy nomi	fond	Ishlab chiqarilgan yili	Narxi	Soni	Hisobga olingan yili	01.01.2015-yil holatiga Aflarning qayta baholash indekslari	Qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning qayta baholash natijasida oshgan summasi
1	Samosval	2009	93,93	1	2012	1,053	4,98	28,94	98,91
2	Samosval 10 tn	1995	18,43	1	2012	1,000	-	2,25	18,43
3	Qurilish vagoni	2006	57,67	6	2012	1,053	3,06	5,51	60,73
4	Traktor	1997	17,01	1	2013	1,021	0,36	1,62	17,37
5	Samosval	2012	504,00	2	2013	1,053	26,71	60,21	530,71
6	Beton aralashtirgich	2012	247,16	1	2013	1,053	13,10	45,96	260,26
7	Samosval 5tn	2011	86,36	1	2013	1,053	4,58	14,12	90,94
8	Avtokran 30 tn	2013	550,0	1	2014	1,074	40,70	40,70	590,70
9	Yuk ko'tarish mashinasi	2011	160,0	1	2014	1,053	8,48	8,48	168,48
10	Avtomashina Lacetti	2011	56,10	1	2014	1,027	1,51	1,51	57,61
11	Ekskavator ob.kovsh 0,65m3	2006	20,10	1	2014	1,053	1,07	1,07	21,17
JAMI		-	1810,76	17	-	-	104,55	210,37	1915,31

2.7-jadvalni tahlil qilishda bu 2015-yil 1-yanvar holatiga qayta baholanilayotgan korxona asosiy fondi o'tgan yilga ko'ra yana koeffitsientlar o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. 2014-yilda ham korxona bajarilgan ishlardan olingan foyda evaziga jami 786,2 million so'mlik bo'lgan ham aktiv asosiy fondlar (730,1 mln.so'm), ham passiv asosiy fondlar (56,1 mln.so'm) xarid qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yilda ham 4 turdagi transport vositasi balansga kirim qilingan bo'lib, aynan qurilish ishlab chiqarishida bevosita ishtirok etuvchi so'nggi fan-texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etilganligi ayni ishlab chiqarishda yanada yuqoriroq natijaga erishishga zamin yaratib beradi. 2014-yil 31-dekabriga qadar jami 1810,76 mln.so'mlik asosiy fond mavjud bo'lib, 2015-yil 1-yanvar holatiga qayta baholanishi hisobiga avvalgi yilda hisobga kiritilganlarining koeffitsient ko'rsatkichlari yana pasayganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu yilda qayta baholash natijasida oshgan summasi 104,55 million so'm bo'lsa, asosiy fondlarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi 210,37 millionga ko'tarilgan. Yil hisobi bo'yicha asosiy fondlarning oshgan summasi 1915,31 million so'mni tashkil etgan holda ko'rsatkichlar avvalgi yildagidan oshgan.

Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish vositalarining asosiy qismini tashkil etgan holda ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida xizmat qiladi. Asosiy fondlar ekspluatatsiya jarayonida eskirib, ishdan chiqib boradi. Asosiy vositalarning ekspluatatsiya muddati qanchalik katta bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik pasayadi. Shu sababli asosiy fondlar vaqt o'tishi bilan o'z moddiy salohiyatini va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga qismlab o'tkazib, amortizatsiya me'yori hisoblab boriladi.

$$M_{am} = \frac{F_1 - F_t}{T_a * F_1}$$

Bu yerda:

F1 - asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

Ft - asosiy fondlarning tugatish qiymati;

Ta - asosiy fondlarning amortizatsiya muddati yoki xizmat muddati, yil.

“STIL-LIFE-SERVIS” MChJ 2012-2014-yillar mobaynida har yillik eskirish qiymati 5 yillik muddat bilan 20%lik amortizatsiya me'yori asosida hisoblashlarni amalga oshirgan. Amortizatsiya summasi o'sib boruvchi yil hisobida mahsulot narxining tobora kamayib borishi – bu mahsulotning narxini tushib, 5 yil mobaynida o'z narxining umuman to'laligicha qurilish mahsulotiga o'tkazib borganligini ko'rsatadi. Korxonada mavjud asosiy ishlab chiqarish fondari orqali yuqoridagi formula asosida yilma-yil buxgalteriya hisoblashlari amalga oshirilib, o'zgarib boraveradi.

2.8-jadvalda 01.01.2013-yil holatiga asosiy fondlarni eskirish summasini chegirish hisoblashlari keltirilgan. 2012-yilda korxona balansida 3 turdagi asosiy fond mavjud bo'lgan. Balansda mavjud 146,7 mln.so'mlik aktiv asosiy ishlab chiqarish fondi qayta baholash natijasida oshgan 162,37 mln.so'm hisobidan 20% amortizatsiya summasi chegirilishi natijasida 33 mln.so'm o'z narxidan kamayib brogan. Joriy yil so'nggiga ko'ra aktiv qismi 129,9 mln.so'mni tashkil etgan. Passiv asosiy ishlab chiqarish fondi esa 73,8 mln.som balansga kirim qilingani bo'yicha qayta baholanganda 82,14 mln.so'mga oshgan. 20 % amortizatsiya summasi chegirilganda 16,0 mln.so'm kamayishi hisobiga yil oxiriga kelib bu ko'rsatkicha ham 65,71 mln.so'mga tushganligini ko'rishimiz mumkin.

2.8-jadval. 01.01.2013-yil holatiga asosiy fondlarga hisoblangan amortizatsiya me'yori ko'rsatkichlari (mln.so'm)

№	Asosiy fond nomi	Ishlab chiqarilgan yili	Narxi (mln. so'm)	Soni	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning qayta baholash natijasida oshgan summasi	Eski rish %i	Eskirish summasi	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan eskirish summasi	Aflarning qoldiq qiymati
1	Samosval	2009	120,20	1	13,58	133,78	20	27	27	107,03
2	Samosval 10 tn	1995	26,50	1	2,09	28,59	20	6	6	22,87
3	Qurilish vagoni	2006	73,80	6	8,34	82,14	20	16	16	65,71
	JAMI	-	220,5	8	24,01	244,61	-	49	49	195,61

2.9-jadval.01.01.2014-yil holatiga asosiy fondlarga hisoblangan amortizatsiya me'yori ko'rsatkichlari (mln.so'm)

№	Asosiy fond nomi	Ishlab chiqarilgan yili	Narxi	Soni	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami qayta baholash natijasida oshgan summasi	Aflarning qayta baholash natijasida oshgan summasi	Eskirishk offitsi-enti	Eskirish summasi	Aflarning ekspluatatsiya qilingan kundan jami eskirish summasi	Aflarning qoldiq qiymati
1	Samosval	2009	107,03	1	23,96	117,41	20	23,48	50,24	93,93
2	Samosval 10 tn	1995	22,87	1	2,25	23,03	20	4,61	10,33	18,43
3	Qurilish vagoni	2006	65,71	6	7,76	72,08	20	14,42	17,16	57,67
4	Traktor	1997	20,00	1	1,26	21,26	20	4,25	4,25	17,01
5	Samosval	2012	563,00	2	67,00	630,00	20	126,0	126,00	504,0
6	Beton aralashtirgich	2012	276,10	1	32,86	308,96	20	61,79	61,79	247,16
	Samosval 5tn	2011	98,40	1	9,54	107,94	20	21,59	21,59	86,36
	JAMI	-	1153,11	13	144,63	1280,68	-	256,14	291,36	1024,54

2.3. MChJ “STIL-LIFE-SERVIS” ning 2012-2014-yillardagi asosiy fondlar bo'yicha fond qaytimining omilli tahlili

Fond qaytimi-ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan miqdori.

Fond qaytimi (sig'imi)ning o'zgarishiga ham bir necha ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bular:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi;
- fond bilan qurollanganlik darajasi va uning o'zgarishi;
- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Korxonaning fond bilan qurollanganlik darajasi asosiy fondning joriy yilgdagi boshlang'ich summasini bir ishchi soniga nisbatan to'g'ri keladigan asosiy fond miqdori tashkil etadi. Uni quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$AFFT = (AFh / \text{ishchilar soni}) : 100$$

Bu yerda:

AFh- hisobot yilida sotishdan tushgan tushum;

Quyidagi jadvalda korxonaning 2012-2014-yillardagi fond bilan qurollanganlik darajasi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra har yil o'ziga xos tarzda pudrat tashkilotlarining buyurtmalari oshishi hisobiga asosiy fond bilan ta'milanish ko'rsatkichi ham shunga mos ko'tarilib borgan.

2.11-jadval. MChJ “STIL-LIFE-SERVIS”ning 2012-2014-yillarda asosiy fond bilan qurollanganlik darajasi ko'rsatkichi (mln.so'm)

No	Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2012-2013-yillar nisbati	2013-2014-yillar nisbati
1	AFning boshlang'ich qiymati	244,61	1280,68	1915,31	1036,07	634,63
2	AFning qoldiq qiymati	195,61	1024,54	1532,23	828,93	507,9
3	Eskirish summasi	49,0	256,14	383,08	207,14	126,94
4	Eskirish koeffitsienti %	20	20	20	-	-
5	Fond bilan qurollanganlik darajasi	188,2	328,4	407,5	140,2	79,1

Fond qaytimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi har bir omillarni o'rganish va ularni tahlil etishda zanjirli usul omillarni toppish imkonini beradi.

Quyidagi formulalar hisoblash ishlariga asos bo'ladi:

$$AFFQ1 = IchH1 / AFFT1;$$

$$AFFQ01 = IchH1 / AFFT0;$$

$$AFFQ0 = IchH0 / AFFT0.$$

Bu yerda:

AFFQ0 – tayanch davridagi fond qaytimi;

AFFQ1 – hisobot davridagi fond qaytimi;

AFFQ01 –fond bilan qurollanganlik darajasi o'zgarmagan holda tayanch davrida olinishi mumkin bo'lgan fond qaytimi qiymati;

IchH0 va IchH1 – tayanch va hisobot davrida bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

AFFT0 va AFFT1 - tayanch va hisobot davrida bir ishchiga to'g'ri keladigan fond bilan qurollanganlik darajasi.

Fond qaytimining o'zgarishi ishlab chiqarish hajimining o'zgarishiga olib keladi:

$$\Delta AFFQIchH = AFFQ01 - AFFQ0.$$

Fond qaytimining o'zgarishi yana fond bilan qurollanganlik darajasiga ham bevosita ta'sir qiladi:

$$\Delta AFFT = AFFQ1 - AFFQ01.$$

Qurilish ishlab chiqarishida fond qaytimining dinamik harakatini tahlil etish jarayonida fond rentabelligi, fond sig'imi va ularning ishlab chiqarishdagi o'zaro iqtisodiy munosabati unumdorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi va rivojlanishi uchun asos hisoblanadi.

Asosiy fondlarni tahlil etib erishilgan natija va ko'rsatkichlarni umumiyashtirganda, fond rentabelligi ulardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga va faoliyatdan olinishi mumkin bo'lgan foydaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Fondrentabelligi faqatgina

fond qaytimiga bog'liq bo'libgina qolmay, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligiga ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Ularning o'zaro aloqasini quyidagi holatda ham ko'rish mumkin:

$$RAF = AFFQ * RICH$$

Bu yerda:

RICH - mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni 2.12-jadval ma'lumotlari orqali hisoblashlarni amalga oshiramiz.

2.12-jadval. MChJ "STIL-LIFE-SERVIS"ning 2012-2014-yillarda asosiy fondlarining dinamik harakati ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkichlar nomi	2012-yil	2013-yil	O'zgarishi		2014-yil	O'zgarishi	
				Absolyut miqdori	%		Absolyut miqdori	%
1	2	3	4	5		7	8	
1	Sotishdan tushgan tushum (ming so'm)	336054	3235304	3231944	96,2	9047021	5811717	26,9
2	Ishchilar soni (kishi)	13	39	26	30	47	8	36,1
3	Asosiy fond(mln.so'm)	2446,1	12806,8	10360,7	43,4	19153,1	6346,3	59,9
4	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	2585,03	8295,6	5710,6	32,09	21039,5	12743,9	81,3
5	Fond bilan qurollanganlik darajasi (mln.so'm)	188,2	328,4	140,2	17,4	407,5	79,1	21,6

Fond qaytimining 2012 va 2013-yillardagi ko'rsatkichlari quyidagicha tuzilgan:

$$AFFQ0 = 2585,03 / 188,2 = 13,73$$

$$AFFQ01 = 8295,65 / 188,2 = 44,07$$

Fond qaytimi umumiy o'zgarganda esa:

$$AFFQ1 = 8295,65 / 328,4 = 25,26$$

$$\Delta AFFT = 25,26 - 13,73 = 11,53.$$

Hisoblashlar natijasi shuni ko'rsatadiki, 2013-yilda 2012-yilga nisbatan har bir ishchiga to'g'ri keladigan fond bilan ta'minlanganlik darajasi 11,53 ming so'mga oshgan.

Fond qaytimining o'zgarishi ishlab chiqarish hajimining o'zgarishiga ta'sir o'kazadi:

$$\Delta \text{AFFQIchH} = 44,07 - 13,73 = 30,34 .$$

Fond qaytimining o'zgarishi korxonada fond bilan qurollangalik darajasining o'zgarishiga asos bo'ladi:

$$\Delta \text{AFFT} = 25,26 - 44,07 = -18,81$$

Umumiy o'zgargan holatda esa:

$$\text{AFFQ} = 30,34 - 18,81 = 11,53$$

Demak, yuqoridagi hisoblashlar natijasi shuni ko'rsatadiki ushbu 2012-yilda korxona ishlab chiqarish hajmini oshishi va mehnat unumdorligining ko'tarilishi uchun fond bilan ta'minlanganlik darajasi ijobiy holatda bo'lgan.

Fond qaytimining 2014-yildagi ko'rsatkichlarini ham tahlil qilib chiqamiz:

$$\text{AFFQ0} = 8295,65 / 328,4 = 25,26$$

$$\text{AFFQ01} = 21039,58 / 328,4 = 64,07$$

Fond qaytimi umumiy o'zgarganda esa:

$$\text{AFFQ1} = 21039,58 / 407,5 = 51,63$$

$$\Delta \text{AFFT} = 51,63 - 25,26 = 26,37.$$

Ushbu yilda ham 2013-yilga nisbatan har bir ishchiga to'g'ri keladigan fond bilan ta'minlanganlik darajasi 26,37 ming so'mga oshgan.

Fond qaytimining o'zgarishi ishlab chiqarish hajimining o'zgarishiga ta'siri:

$$\Delta \text{AFFQIchH} = 64,07 - 25,26 = 38,81 .$$

Fond qaytimining o'zgarishi fond bilan qurollangalik darajasining o'zgarishiga ta'siri:

$$\Delta \text{AFFT} = 51,63 - 64,07 = -12,44$$

Umumiy o'zgargan holatda esa:

$$AFFQ = 38,81 - 12,44 = 26,37.$$

2014-yilda ham korxonada fond bilan ta'minlanganlik darajasi ijobiy natijani ko'rsatdi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, yuqoridagi tahlillar umumiy tarzda qilingan tahlillardir. Natijani yana ham aniqroq qilish uchun ishlab chiqarish asosiy fondlarining umumiy samaradorligi va intensivlik darajalarini o'rganish talab etiladi. Fondlarning rentabelligi darajasi yuqoriligi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdorinig o'sishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

2.4. MChJ "STIL-LIFE-SERVIS" tomonidan amalga oshirilgan turarjoy kompleksi qurilishida asosiy fondlarning ishtiroki va samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlili

Toshkent shahar Mirobod tumani Sarikul ko'chasidagi 5 qavatli 30 xonadondan iborat turarjoy binosi lokal smetasida keltirilgan ma'lumotlar asosida ushbu binoning qurilishida foydalanilgan asosiy fondlarning ulushini tahlil etamiz.

2.13-jadval. MChJ "STIL-LIFE-SERVIS" tomonidan barajilgan qurilish ob'yekti lokal smetasidan namuna.

ЛОКАЛЬНАЯ РЕСУРСНАЯ СМЕТА

№	Наименование материалов и конструкций	Ед. Изм -я	Количество	Стоимость в текущих ценах	
				единицы	На весь объем
Ресурсы по нормам ШНК					
ЗАТРАТЫ ТРУДА					
1	ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧИХ-СТРОИТЕЛЕЙ	Чел-ч	4815,481410		
2	ЗАТРАТЫ ТРУДА МАШИНИСТОВ	Чел-ч	2932,946135		
	ИТОГО ПО ТРУДОВЫМ РЕСУРСАМ (БЕЗ МАШИНИСТОВ)	Чел-ч	24815,481		
СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАШИНЫ И МЕХАНИЗМЫ					
1	АГРЕГАТЫ ДЛЯ ПРИГОТОВЛЕНИЯ РАБОЧИХ ЖИДКОСТЕЙ-ЯДОХИМИКАТОВ (БЕЗ ТРАКТОРА)	Маш-ч	2,065800	562,00	1161
2	АВТОПОГРУЗЧИКИ 5 Т	Маш-ч	13,878810	37000,00	513516
3	АВТОМОБИЛИ-САМОСВАЛЫ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 7 Т	Маш-ч	0,239715	1 9149,00	4590

4	АВТОМОБИЛИ-САМОСВАЛЫ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 10 Т	Маш-ч	757,4 99400	³ 5000,00	26512479
5	БУЛЬДОЗЕРЫ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОГО) 59 (80) КВТ (Л.С.)	Маш-ч	72,201563	23583,00	1702729
6	БУЛЬДОЗЕРЫ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОГО) 79 (108) КВТ (Л.С.)	Маш-ч	11,163870	28541,00	318628
7	ВЫПРЯМИТЕЛИ СВАРОЧНЫЕ МНОГОПОСТОВЫЕ С КОЛИЧЕСТВОМ ПОСТОВ ДО 30	Маш-ч	0,047880	5408,00	259
8	ВИБРАТОРЫ ГЛУБИННЫЕ	Маш-ч	777,799482	385,00	299453
9	ВИБРАТОРЫ ПОВЕРХНОСТНЫЕ	Маш-ч	60,346167	160,00	9655
10	ДОМКРАТЫ ГИДРАВЛИЧЕСКИЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 100 Т	Маш-ч	0,424710	359,00	152
11	ДРЕЛИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ	Маш-ч	4,534490	246,00	1115
12	КОМПРЕССОРЫ ПЕРЕДВИЖНЫЕ С ДВИГАТЕЛЕМ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ ДАВЛЕНИЕМ ДО 686 КПА (7 АТМ.) 2,2 МЗ/МИН	Маш-ч	7,694400	16113,00	123980
13	КОМПРЕССОРЫ ПЕРЕДВИЖНЫЕ С ДВИГАТЕЛЕМ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ ДАВЛЕНИЕМ ДО 686 КПА (7 АТМ.) 5 МЗ/М	Маш-ч	17,039200	19870,00	338569
14	КРАНЫ БАШЕННЫЕ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ МОНТАЖА ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ) 8 Т	Маш-ч	1474,986069	13803,00	20359233
15	КРАНЫ КОЗЛОВЫЕ ПРИ РАБОТЕ НА МОНТАЖЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ 32 Т	Маш-ч	0,089760	0,00	0
16	КРАНЫ НА АВТОМОБИЛЬНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ МАГИСТРАЛЬНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ) 10 Т	Маш-ч	52,456401	28670,00	1503925
17	КРАНЫ НА АВТОМОБИЛЬНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА МОНТАЖЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ 16 Т	Маш-ч	1,549920	31692,00	49120
18	КРАНЫ НА ГУСЕНИЧНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ МАГИСТРАЛЬ НЫХ ТРУБОПРОВОДОВ) ДО 16 Т	Маш-ч	120,967320	31692,00	3833696
19	КРАНЫ НА ГУСЕНИЧНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ МАГИСТРАЛЬНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ) 25 Т	Маш-ч	2,147670	38942,00	83635
20	КРАНЫ НА ГУСЕНИЧНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ МАГИСТРАЛЬНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ) 40 Т	Маш-ч	1,459320	37912,00	55326
21	КОТЛЫ БИТУМНЫЕ ПЕРЕДВИЖНЫЕ 400 Л	Маш-ч	19,236000	1350,00	25969
22	ЛЕБЕДКИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ, ТЯГОВЫМ УСИЛИЕМ ДО 5,79 (0,59) КН (Т)	Маш-ч	0,106357	453,00	48
23	ЛЕБЕДКИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ, ТЯГОВЫМ УСИЛИЕМ 19,62 (2) КН (Т)	Маш-ч	97,741830	1188,00	116117
24	МАШИНЫ ПОЛИВОМОЕЧНЫЕ 6000 Л	Маш-ч	7,796555	23444,00	182782

25	МАШИНЫ ШЛИФОВАЛЬНЫЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ	Маш-ч	0,127290	322,00	41
26	ПРЕОБРАЗОВАТЕЛИ СВАРОЧНЫЕ С НОМИНАЛЬНЫМ СВАРОЧНЫМ ТОКОМ 315- 500 А	Маш-ч	107,057790	2860,00	306185
27	ПОДЪЕМНИКИ МАЧТОВЫЕ СТРОИТЕЛЬНЫЕ 0,5 Т	Маш-ч	11,582700	3687,00	42705
28	БЕНЗОПИЛЫ	Маш-ч	13,475000	282,00	3800
29	ПИЛА ЭЛЕКТРИЧЕСКАЯ ЦЕПНАЯ	Маш-ч	36,975488	229,00	8467
30	ТРАМБОВКИ ПНЕВМАТИЧЕСКИЕ	Маш-ч	68,268900	227,00	15497
31	УСТАНОВКИ ДЛЯ СВАРКИ РУЧНОЙ ДУГОВОЙ (ПОСТОЯННОГО ТОКА)	Маш-ч	2501,979211	770,00	1926524
32	ЭКСКАВАТОРЫ ОДНОКОВШОВЫЕ ДИЗЕЛЬНЫЕ НА ПНЕВМОКОЛЕСНОМ ХОДУ ПРИ РАБОТЕ НА ДРУГИХ ВИДАХ СТРОИТЕЛЬСТВА (КРОМЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОГО) 0,25 МЗ	Маш-ч	279,768020	40000,00	11190721
33	ПЕЧИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ ДЛЯ СУШКИ СВАРОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ С РЕГУЛИРОВАНИЕМ ТЕМПЕРАТУРЫ В ПРЕДЕЛАХ 80-500 ГР. С	Маш-ч	0,008580	901,00	8
34	АВТОМОБИЛИ БОРТОВЫЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 5 Т	Маш-ч	50,790110	14881,00	755808
35	ВТОМОБИЛИ БОРТОВЫЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 5 Т	Маш-ч	52,520732	14881,00	781561
36	АГРЕГАТЫ ОКРАСОЧНЫЕ ВЫСОКОГО ДАВЛЕНИЯ ДЛЯ ОКРАСКИ ПОВЕРХНОСТЕЙ КОНСТРУКЦИЙ МОЩНОСТЬЮ 1 КВТ	Маш-ч	7,031508	727,00	5112
37	АППАРАТЫ ДЛЯ ГАЗОВОЙ СВАРКИ И РЕЗКИ	Маш-ч	21,907080	1160,00	25412
	ИТОГО ПО СТРОИТЕЛЬНЫМ МАШИНАМ	сум			71097980

Ushbu jadvalni tahlil etamiz. Lokal smetaning bir qisminigina tadqiqot ishimizga namuna sifatida keltirib o'tdik. Unga ko'ra ushbu binoning umumiy qilib olinganda bir soatda bitta quruvchi-ishchiga to'g'ri keladigan mehnat haqi 24815,4 so'mga teng bo'lsa, mashina va mexanizmlar bilan ishlovchining bir soatda bir kishining ish haqi 2932,9 so'mni tashkil etadi.

Qurilish miqyosida asosiy fondlarning aktiv qismini tashkil etuvchi mashina va mexanizmlarda foydalanish smeta resurs normalari ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinaning asosiy texnik o'lchamlari (ekskaatorlar uchun kovsh hajmi, buldozerlar uchun quvvati, kranlar uchun yuk ko'tarish qobiliyati)ni differensiyalash, o'lchov xillari va guruhlar bo'yicha farqlanadi. Smeta resurs normalari mashinalarning markasi, o'lchov xillarining guruhlarini o'rtacha o'lchov bo'yicha tashkil etiladi. Umumiy holatda mashina va mehanizmning turiga, bajaradigan vazifasi va soatiga ko'ra bir mashina soat

hisobida ish haqi hisoblanadi. Namunamizda ularning bir necha xil turlari hisobga olingan.

- yer kovlovchi - bir kovshli, ko'p kovshli, o'zi yurar, qadam tashlovchi;
- yuk ko'taruvchi-minorali, ko'prik, chorpoya, suzuvchi kranlar,
- tekislovchi mexanizmlar – buldozer, skreper, avtogreydor;
- traktorlar; ustun-qoziq qoqish texnikalari, avtoyuklovchilar;
- pardoqlash ishlarida ishlatiladigan mashina va mexanizmlar;
- boshqa yordamchi mashina va mexanizmlar shular jumlasidandir.

Avtoyuklovchi mexanizmlar namunada ob'yekt qurilishi davomida 13,78 soat vaqt mobaynida ishlaydigan bo'lsa, uning har bir ishlash soati 37000 so'mdan bo'lib, umumiy shu obyekt tugallanguncha 513516 so'mlik ish bajarar ekan. Huddi shunday 8 tonnalik minorali kran ham shu obyektida boshqa turdagi qurilish ishlarini bajarishi uchun 1474,98 soatlik ish vaqti belgilangan bo'lib, kranga har bir soati uchun 13803 so'm miqdorida haq hisoblanib, umumiy yig'indisi 20 359 233 so'mlik ishni bajaradi.

Dizel yoqilg'isi bilan ishlovchi bir kovshli ekskavatorning bir mashina soati 40 000 so'm qilib belgilangan bo'lib, qurilish davomida 279,77 soat ishlash vaqti belgilangan. Unga to'lanadigan haq esa 1 190 721 so'mni tashkil etadi. Buldozerlar ish jarayonida faol qatnashgan holda ularning ob'yekt qurilishida sarflaydigan vaqti 72,2 soatga teng bo'lib, uning har bir soati uchun 23 583 so'm miqdorida haq belgilangan. Umumiy yig'indi summasi 1 702 729 ga teng bo'ladi.

Umumiy holatda ushbu 5 qavatli 30 xoadondan iborat bo'lgan turarjoy binosini qurilish ishlarini boshlanib, yakuniga yetgunga qadar 37 turdagi mashina va mexanizmlardan iborat asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayoniga safarbar etiladi. Qurilish ishlari hajmi bo'yicha asosiy fondlarning qiymati 71 097 980 so'mni tashkil etadi. Bu kabi qurilish ishlaridan olinadigan foydani korxona o'zida saqlab qolishi uchun albatta asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasiga va albatta ularning to'xtovsiz ishlashi uchun dadil harakat qilishi zarur hisoblanadi.

II bob bo'yicha xulosa

Olib borayotgan tadqiqot ishimizning ushbu bobida korxonaning mavjud asosiy fondlarini tarkibiy, omilli, namunaviy tarzda tahlil etdik. Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarish hajmining yuqori yoki past bo'lishi, samaradorlik ko'rsatkichining belgilangan reja asosida bo'lishi uchun quyidagilar omillar eng ko'p ta'sirni o'tkazadi:

- ishlab chiqarish quvvati va hajmi;
- asosiy fond tarkibi va turlar bo'yicha miqdori;
- asosiy fondlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi;
- uskunalar ish vaqti fondi (xizmat muddati);
- ishchi va xizmatchilar soni;
- ishlab chiqarilayotgan, qurilayotgan mahsulotning uzoq muddat foydalanish kafolati.

Qurilish ishlab chiqarish sohasida ham boshqa tarmoqlardagi kabi asosiy maqsad- ko'proq foyda olib, raqobatbardosh korxona sifatida faoliyat yuritish kabi muhim maqsadga erishish uchun mavjud barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan harajatlarni kamaytirish kerak bo'ladi. Har bir korxona ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirishga harakat qiladi.

Tadqiqot ishiga ob'yekt sifatida olingan MChJ "Stil-Life-Servis" tashkiloti o'zining qat'iy belgilangan boshqaruv tuzilishi orqali o'z faoliyatini tartibga solib turadi. Boshqaruv tuzilishi ham o'z o'rnida faoliyat samaradorligini belgilab beradi.

Korxona asosiy ish unumdorligiga ta'sir etuvchi kuch bo'lgan asosiy fondlarni asosan o'z mablag'lari hisobiga shakllantirib borgan. Yildan – yilga olingan foydaning ortib borishi va tashkilot ta'sischilari tomonidan ustav mablag'larini to'g'ri yo'naltirishga erishganlari hisobiga yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga kng joriy etganlar. Bu esa unumdorlikni belgilovchi asosiy mezondir. Bajarilgan ishlarning korxona foydasidagi ahamiyati yuqoriligi hisobiga ham ushbu kirim qilingan asosiy fondlarning ulushini

oshirishda asosiy o'rinni egallagan. Qurilishga joriy etiladigan yangi texnika va texnologiyalar ham o'z o'rnida qurilishni belgilangan muddatdan oldin bajarish imkoniyatini beradi. Hammamizga ma'lumki, qurilishni o'z muddatidan avval buyurtmachiga topshirish evaziga ham keladigan daromad miqdorini oshirishlari mumkin. Har bir buyurtmachi eng yaxshi pudratchi korxonaga ish topshirishlari uchun uning asosiy fondining tarkibini va albatta ish sifati darajasiga e'tiborini qaratadi.

Tahlillar natijasi ushbu korxona ish ko'lami bir maromda va rejadagidek ketayotganligini ko'rsatmoqda. Undagi fond bilan qurollanganlik darajasi, fond qaytmining me'yor jihatdan to'g'ri kelayotganligi, fond rentabelligi ko'rsatkichi ham amalda yaxshi natijani ko'rsatayotganligi tashkilotning ish jarayoni bir maromda ekanligidan dalolat beradi.

Asosiy fond bilan yaxshi qurollangan har qanday qurilish korxonasining o'tkaziladigan tenderlarda yutib chiqishlari uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar asosida bir qator xulosalarga erishish imkoniyati mavjud. Jumladan:

- qurilish korxonalarida fond qaytimi va fond rentabelligi ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishi uchun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni ko'paytirishga erishish;
- jahon standartlariga to'la javob bera oladigan yuqori sifatli qurilish ishlab chiqarish mahsulotini yaratishda eng kam harajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini oshirish, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;
- iste'molchilar istaklarini inobatga olgan holda yangicha takliflar joriy etish va h.k.lardan iborat.

III BOB. ASOSIY FONDLARNING HOLATI VA HARAKATINI KORXONA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI ASOSLASH

3.1. Asosiy fondlarning qurilish korxonasi ishlab chiqarish salohiyatiga ta'siri


Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi ko'p jihatdan asosiy fondlardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Asosiy fondlardan qanchalik yaxshi foydalanilsa, ishlab chiqarish shunchalik ko'p, mehnat unumdorligi shunchalik yuqori, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi kam, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi fond samaradorligi, ko'p foyda talab qilinishi, rentabellik, shuningdek, mahsulot hajmi va asosiy fondlarni takroriy ishlab chiqarishga harajatlarning kamayishi, mehnat vositalari xizmat muddatlarining uzayishi bilan tavsiflanadi.

Fond samaradorligi - shu davrdagi asosiy fondlar o'rtacha qiymatining 1 so'mlik bajarilga qurilish mahsuloti hajmidir. Bu qurilishda ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichidir. Fond samaradorligining miqdori va o'zgarishiga qurilish korxonasiga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan ko'pdan-ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligiga ta'sir kursatuvchi eng muhim omillardan biri korxona ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishini yaxshilashdan iborat.

Asosiy fondlar rentabelligi sof foydaning shu davrdagi asosiy fondlar o'rtacha qiymatiga nisbati sifatida belgilanadi.



3.1-diagramma. “STIL-LIFE SERVIS” MChJning 2012-2014 yillardagi moliyaviy natijalari⁵


3.1- diagrammada “STIL-LIFE SERVIS” MChJning 2012-2014 yillarda asosiy fondlarning holati va ulardan foydalanish tahlil kilingan. Asosiy fondlarning oʻrtacha yillik qiymati 2012-yilda 781939 ming qoʻyilmani, 2013-yilda 1441684 ming qoʻyilmani, 2014-yilda 2270570 ming qoʻyilmani tashkil qilgan, yaʼni 828885,5 ming soʻmga oshgan. Mahsulot sotishdan tushgan tushum, yaʼni qurilish montaj ishlari 2012-yilda 1536773 ming soʻmni, 2013-yilda 4754057 ming soʻmni, 2014-yilda esa 10893789 ming soʻmni tashkil etib, tugallangan yilda 2013-yilga nisbatan 6139732 ming soʻm ortik qurilish montaj ishlari bajarilgan, yaʼni 30,9 foizga koʻp.

⁵“STIL-LIFE SERVIS” MChJ hisobot maʼlumotlari

9.1 Jadval. "STIL LIFE SERVICES" MChJ ning 2012-2014 yillarda asosiy fondlarning holatiga ulardan foydalanish tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	Farq(+;-)	O'zg.nis,%
	1	2	3	4	5	6
1	Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	781939	1441684	2270570	828885,5	157,5
2	Sotishdan tushgan tushum, ming so'm	1536773	4754057	10893789	6139732	309
3	Sof foyda, ming so'm	139582	260717	633663	372945	243
4	Asosiy fondlar samaradorligi, ming so'm	1,965	3,298	4,798	1,500	145,5
5	Fond sig'imi, so'm	509	303	208	-95	68,7
6	AF rentabelligi, %	17,85	18,08	27,91	9,823	X

Sof foyda 2012 yilda 139582 ming so'mni, 2013 yilda 260717 ming so'mni, 2014 yilda 372945 ming so'mga ko'payib, 633663 ming so'mni tashkil qilgan. Asosiy vositalarning fond samaradorligi 2012 yilda 1,96 ming so'mni, 2012 yilda 3,29 ming so'mni, 2014 yilda 4,79 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni 1,5 ming so'mga oshgan.



3.2-diagramma. “STIL-LIFE SERVIS” MChJ ning 2012-2014 yillarda asosiy fondlarning holati va ulardan foydalanish⁶

Fond sig'imi ijobiy ko'rsatkichlarga ega. Jumladan, 2012 yil 509 so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013 yilda 303 so'mni tashkil qilgan. 2014 yilda o'tgan yilga nisbatan 95 so'mga, ya'ni 31,3 foizga tushib, 208 so'mni tashkil qilgan. Asosiy vositalar rentabelligi 2012 yilda 17,85 %ni, 2013 yilda 18,08%ni, 2014 yilda 27,91% ni tashkil qilgan, ya'ni 9,8 %ga ko'paygan.

Yuqorida keltirilganlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, qurilishda asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga erishishning asosiy yo'llaridan biri bu mavjud asosiy fondlardan foydalanish darajasini oshirish hisoblanadi.

⁶“STIL-LIFE SERVIS” MChJ hisobot ma'lumotlari

Mavjud asosiy fondlardan foydalanish darajasini oshirishga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin bo'ladi:

- korxona tomonidan bunyod etilayotgan ob'ektlar qurilish ishlarida mavjud asosiy fondlardan imkon qadar ko'proq foydalanishga erishish;
- tender savdolarida qatnashish uchun taqdim etilayotgan ofertalarda tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini korxonada mavjud texnikalarni inobatga olgan holda shakllantirish;
- korxonada mavjud asosiy fondlari (mobil qurilish texnikasi va transport vositalarini) internet va boshqa axborot vositalaridan foydalanib ijraga berish ishlarini yo'lga qo'yish;
- korxonada mavjud asosiy fondlarni garov kafolati sifatida foydalanib banklarning kredit mablag'laridan foydalanish orqali asosiy fondlar salohiyatidan foydalanish mumkin bo'ladi.

3.2. Qurilish ishlari smetasida yangi mashina-mexanizmlardan foydalanish orqali qurilish korxonasi asosiy fondlari taribini yangilash yo'llari

Qurilish korxonalari ob'ektlarning smeta qiymatini hisoblashda korxonada mavjud qurilish texnikasidan imkon darajasida ko'proq foydalanish orqali mashina va mexanizmlardan samaraliroq foydalanishga erishish mumkin bo'ladi.

Respublikamizda amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida shakllantirilgan qurilish ishlarining lokal smetasida keltirilgan ishlar tarkibini tahlil qilish orqali aynan ishchi loyihada berilgan ish hajmini bajarish uchun korxonada mavjud mashina-mexanizmlardan foydalanish yo'li bilan korxonaning asosiy fondlaridan samarali foydalanish va qurilish ishlari qiymatini kamaytirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ob'ekt smeta qiymatini hisoblash jarayonida lokal vedomostdagi ish hajmini bajarishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan mashina-mexanizmlarni turli yondashuvlar asosida ko'rib chiqish va tahlil etish orqali korxonadagi mashina va mexanizmini amalda samarali qo'llashga erishiladi. Buning uchun korxonada

mavjud asosiy vositalar respublikamiz qurilish tarmog'ida amaliyotda qo'llanilayotgan mashina mexanizmlar turkumiga kirishi talab etiladi. Shu sababli qurilish korxonasi o'z texnoparkini spetsifik xususiyatni inobatga olgan holda faqat qurilish texnikasi bilan to'ldirishi talab etiladi.

Respublikamizda qurilish sohasida qo'llanilayotgan mashina va mexanizmlar va ulardan foydalanish harajatlarini o'rganish uchun Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi qoshidagi "Iqtisodiy islohotlar va qurilishda bahoni shakllantirish markazi" tomonidan har kvartalda chop etiladigan qurilish materiallari va ishlari narxlari davriy katalogi ma'lumotlarida keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Bunda qurilish sohasida ishlatiladigan eng yirik texnika vositalarini to'rt guruhga bo'lish mumkin bo'ladi. Bular yuk ko'taruvchi texnika, buldozerlar, yuk tashuvchi texnika va ekskavatorlardan tashkil topadi.

Ushbu guruh tarkibiga kiritilgan texnika vositalari qurilish sohasida foydalaniladigan asosiy texnika hisoblansada, qurilish ishlarining spetsifikatsiyasidan kelib chiqib ushbu texnika vositalari arsenali farqlanadi.

Qurilish sohasidagi fuqorolik bino va inshootlari qurilishi smetasi xarajatlari tarkibida qurilish texnikasi bilan bajariladigan ishlar qiymati 35-40 foizni tashkil qiladi. Shundan yuk ko'taruvchi texnikasi hisobiga 8-10 %, buldozerlar hissasiga 1-6 %, yuk tashuvchi texnika hissasiga 2-18 % va ekskavatorlar hisobiga esa 2-8 % foiz to'g'ri keladi⁷.

⁷Дорожкин В.Р. Ценообразование и управление стоимостью в строительстве. –Воронеж. Изд.дом им. Е.А.Болховитинова, 2003г. 236 стр.

3.2-jadval

Respublika bo'yicha Qurilish sohasida 2012-2014 yillarda foydalanilgan asosiy mashina mexanizmlar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot(1 mash/soat narxi hisobida).

№	Mashina mexanizmlar nomi	O'lchov birligi	Narxi 1 mash/soat (sum)			2012-2014-yillarda o'sishi %da	
			01.01.2013y.	01.01.2014y.	01.01.2015y.	01.01.2013- 01.01.2014	01.01.2014- 01.01.2015
1.	Avtogreder 99 kvt 135 l.s.	mash/soat	40570	62882	75591	55,00	20,21
2.	YUk tashuvchi 5 tn	mash/soat	19927	27353	36803	37,27	34,55
3.	Avtogidravlik ko'taruvchi 18m lik	mash/soat	22440	23843	27877	6,25	16,92
4.	Avtogidravlik ko'taruvchi 22m lik	mash/soat	28130	30095	35383	6,99	17,57
5.	Buldozer 59(80) kvt (l.s.)	mash/soat	30658	36164	42619	17,96	17,85
6.	Buldozer 79(108) kvt (l.s.)	mash/soat	36949	40617	51900	9,93	27,78
7.	Buldozer 96(130) kvt (l.s.)	mash/soat	45840	55341	68141	20,73	23,13
8.	Buldozer 118(160) kvt (l.s.)	mash/soat	52429	57693	72371	10,04	25,44
9.	Avto ko'tarma 6,3 tn	mash/soat	31130	32447	41722	4,23	28,59
10.	Avto ko'tarma 10 tn	mash/soat	37440	43859	48700	17,14	11,04
11.	Avto ko'tarma 16 tn	mash/soat	46875	54957	60545	17,24	10,17

№	Mashina mexanizmlar nomi	O'lchov birligi	Narxi 1 mash/soat (sum)			2012-2014-yillarda o'sishi %da	
			01.01.2013y.	01.01.2014y.	01.01.2015y.	01.01.2013- 01.01.2014	01.01.2014- 01.01.2015
12.	Paletli ko'tarma 16 tn	mash/soat	35349	38521	52123	8,97	35,31
13.	Paletli ko'tarma 25 tn	mash/soat	46755	51243	64368	9,60	25,61
14.	Paletli ko'tarma 40 tn	mash/soat	55911	58269	71788	4,22	23,20
15.	Minorali ko'tarma 5 tn	mash/soat	13872	20547	34258	48,12	32,06
16.	Minorali ko'tarma 8 tn	mash/soat	15781	22806	36040	44,52	31,18
17.	Minorali ko'tarma 10 tn	mash/soat	17111	23678	27342	38,38	15,47
18.	Gildirakli ekskavator 0,25 m ³	mash/soat	26032	32184	39473	23,63	22,65
19.	Paletli ekskavator 0,5 m ³	mash/soat	41187	45754	52969	11,09	15,77
20.	Paletli ekskavator 0,65 m ³	mash/soat	42478	48679	53543	14,60	9,99
21.	Paletli ekskavator 1,0 m ³	mash/soat	54283	61537	67986	13,36	10,48
22.	O'ziyurar katok 8 tn	mash/soat	23420	32128	35564	37,18	10,69
23.	O'ziyurar katok 13 tn	mash/soat	26723	36186	40034	35,41	10,63
24.	O'ziyurar katok 16 tn	mash/soat	44550	59188	66262	32,86	11,95
25.	Xarakatlanuvchi kompressor (8at) 10m ³ /min	mash/soat	40446	42336	49532	4,67	17,00

№	Mashina mexanizmlar nomi	O'lchov birligi	Narxi 1 mash/soat (sum)				2012-2014-yillarda o'sishi %da	
			01.01.2013y.	01.01.2014y.	01.01.2015y.		01.01.2013-01.01.2014	01.01.2014-01.01.2015
26.	Dizel yoqilg'ili payvandlovchi agregat 250-400 A	mash/soat	7533	10584	11578		40,50	9,39
27.	Qo'lda payvand qiluvchi	mash/soat	966	1435	1660		48,55	15,68
28.	Vibrator	mash/soat	399	416	458		4,26	14,10
29.	Tozalovchi mashina	mash/soat	32237	36646	43742		13,68	22,36
30	YUk va odam ko'taruvchi 0,8 tn	mash/soat	18745	24564	31838		20,80	42,06
	O'rtacha narxining o'sishi						21,91	28,03

Keltirilgan ma'lumotlarda qurilish sohasida qo'llanilayotgan texnikadan foydalanish harajatlarning o'sib borishi ko'rsatkichi zanjirsimon usuldan foydalanilgan holda tahlil qilingan bo'lib, unda o'rtacha uch yillik o'sish 28 foizni tashkil etgan. Eng muhimi shu davrda qurilish sohasida qiymatning eng yuqori o'sish suratlari yuk tashuvchi (5 tn) transport 34,55%ga, 5 tonnali minorali ko'tarma kran 32 foizga, yuk va odam ko'taruvchi texnika uchun harajatlar 42 foizga qimmatlashganligini ko'rish mumkin.

Ammo, qurilish texnikasi uchun sarflanadigan xarajatlar bilan bog'liq ko'rsatkichga asoslanib qurilish bozorida talab yuqori bo'lgan texnika vositasini tanlab bo'lmaydi. Tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, qurilish texnikasiga bo'lgan talabga:

- hududda ushbu texnikaning mavjudligi va miqdori;
- qurilish korxonalari va iste'molchilarning ushbu texnikalardan foydalanishga o'rganganliklari;
- ushbu qurilish texnikasini ishlatish uchun zarur materiallar, ehtiyot qismlar va servis xizmatining yo'lga qo'yilganligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizning misoli sifatida dunyoda va respublikamizda qurilish sohasida avtokranlardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotni tahlil qilib keltirishamiz.

Hozirgi kunda fan va texnika taraqqiyoti va iqtisodiy globallashuv sharoitida dunyoda qurilish sohasida ishlab chiqarilayotgan va amaliyotga joriy etilayotgan texnika shu qadar ko'pki ularning barchasini har qanday mamlakat ham qurilish amaliyotiga qo'llab ulgurmaydi. Bunga misol sifatida avtokran ishlab chiqarishni keltirish mumkin. www.avtocrane.ru sayti ma'lumotiga ko'ra dunyodagi 70 dan ortiq davlatlardagi 150 tadan ortiq zavodlar tomonidan 700 dan ortiq rusumdagi avtokranlar ishlab chiqarilmoqda.

Internet ma'lumotlariga ko'ra qurilish sohasi uchun eng qulay va ko'p qo'llanilayotgan avtokran bu SANY-Q425 markali kran bo'lib uning strelasi 40 metrgacha, yuk ko'tarish quvvati 25 tonnagacha. Uning ishlash tezligi 500-700tonna/soatinitashkil etadi. Mazkur kranning ko'p qo'llanishiga sabab u Xitoyda

ishlab chiqarilayotgan arzon (zavodning savdoga chiqarish qiymati 30 ming dollar atrofida) texnika hisoblanadi.

Dunyoda eng tejamkor va samara beruvchi avtokran Mitsubishi FUSO avtomashinasi bazasida TADANO avtokrani hasoblanadi. Mazkur avtokranning yuk ko'tarish quvvati 5 tonna, strela uzunligi min. 6 21 metr, ishchi holatida 13 metrgacha cho'ziladi, 100 tonna yukni 15 metr balandlikka ko'tarish uchun 6.5 litr yoqilg'i sarflaydi. YOki 1 soat ish faoliyatida o'rtacha 8,2 litr yoqilg'i sarflaydi.

Respublikamizda qurilish sohasida ishlatilayotgan kranlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi "Qurilishda bahoni shakllantirish markazi" tomonidan 2014 yil 4 kvartal uchun chop etilgan "Narxlar katalogi"dan qurilish texnikasi va ulardan foydalanishning soatlik qiymati to'g'risidagi ma'lumotni o'rganamiz.

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2014 yil 4 kvartalda qurilish sohasida foydalaniladiga yuk ko'tarish kranlari va ularni ishlatishning 1 soatlik o'rtacha qiymati to'g'risida ma'lumot

№	Qurilish texnikasi nomi, rusni va yuk ko'tarish quvvati	O'lchov birligi	Narxi (so'mda)
2	Краны ,башенные при работе на стр-ва,5 т	mash-s	20141
3	Краны ,башенные при работе на стр-ва,8 т	mash-s	22400
4	Краны ,башенные при работе на стр-ва, 10 т	mash-s	23272
5	Краны на железнодорожном ходу 16 т	mash-s	32258
6	Краны на железнодорожном ходу 25 т	mash-s	35518
7	Краны на железнодорожном ходу 80 т	mash-s	62554
8	Краны на гусенечном ходу при работе на стр-ва,16t	mash-s	38115
9	Краны на гусенечном ходу при работе на стр-ва,25 т	mash-s	50837
10	Краны на автомобиль ходу при работе на стр-ва,63 т	mash-s	32041
11	Краны на автомобиль ходу при работе на стр-ва,10t	mash-s	39674
12	Краны на автомобиль ходу при работе на стр-ва,12,5t	mash-s	43453
13	Краны на автомобиль ходу при работе на стр-ва,16 т	mash-s	54551
14	Краны на пневмоколес ходу при работе на стр-ва,16 т	mash-s	37069
15	Краны на пневмоколес. ходу при работе на стр-ва,25t	mash-s	42642

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda tahlil qilinadigan bo'lsak, bu jadval ma'lumotlarida qurilish texnikasi markasi, rusni va quvvati to'g'risida ma'lumot keltirilmagan.

Ayni vaqtda avtomobil bazasidagi avtokranlardan foydalanish qiymati bashniyali, temir yo'l relslarida harakatlanuvchi kranlarga nisbatan qimmatligini ko'rish mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlarda qurilishda avtomobil bazasidagi kranga nisbatan bashniyali krandan foydalanish arzonga tushishi ko'rsatilgan bo'lsada, tahlil qilish jarayonida amalda teskarisi, ya'ni ishchi xodimlar ish haqi va bashniyali kranni qurilish maydoniga tashib kelish va o'rnatish xarajatlarini qo'shib hisoblaganda uning ancha qimmatga tushishini ko'rish mumkin. Shu sababli avtomobil bazasidagi kranlardan foydalanish arzon va qulayligini asoslash mumkin bo'ladi.

Demak, qurilish korxonasi o'z asosiy fondlaridan samarali foydalanishi uchun qurilish texnikasi bozorida talab yuqori bo'lgan asosiy vositalarni sotib olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa hududdagi talabni o'rganish, ya'ni marketing tadqiqotlari olib borish lozim bo'ladi.

Qurilish korxonasiga faqatgina zamonaviy qurilish texnikasini sotib olish bilan kifoyalanish yuqori samara olish imkonini bermaydi. Ya'ni hududdagi iste'molchilar qurilish korxonasi va unda mavjud texnika to'g'risida axborotga ega bo'lishlari talab etiladi. Buning uchun korxonada mavjud qurilish texnikasini reklama qilishga zarurat yuzaga keladi.

Demak, o'rta va yirik qurilish korxonalarining asosiy fondlaridan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy yo'llaridan biri korxonada marketing bo'limini tashkil qilish lozim bo'ladi. Marketing bo'limi qurilish ishlari bozorini o'rganish bilan bir qatorda korxonada mavjud qurilish texnikasini reklama qilish va ularni bo'sh turib qolmasligini oldini olish uchun shartnoma asosida tashkilotlarga turli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishi lozim bo'ladi.

III bob bo'yicha xulosa

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ulardan foydalanish hisobiga erishiladigan fond samaradorligi, rentabellik, shuningdek, mahsulot hajmi va asosiy fondlarni takroriy ishlab chiqarishga harajatlarning kamayishi, mehnat vositalari xizmat muddatlariga bog'liq holda o'rganiladi.

Qurilish korxonalarining asosiy fondlar uchun sarflanadigan harajatlar bilan bog'liq ko'rsatkichga asoslanib qurilish bozorida talab yuqori bo'lgan texnikani tanlash imkoniyati mavjud emas. Chunki namuna asosida olingan qurilish korxonasi aynan bir yo'nalishda faoliyat olib bormaydi. Kelgusi buyurtmachi korxona uchun olib boriladigan qurilish ishlari oldingisiga o'xshash bo'limsligi mumkin. Tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, qurilish texnikasiga bo'lgan talabga:

- hududda ushbu texnikaning mavjudligi va miqdori;
- ushbu qurilish texnikasini ishlatish uchun zarur materiallar, ehtiyot qismlar va servis xizmatining yo'lga qo'yilganligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish korxonasiga faqatgina zamonaviy qurilish texnikasini sotib olish bilan kifoyalanish yuqori samara olish imkonini bermaydi.

Ilmiy tadqiqot ishiing III bobda qurilish korxonasi asosiy fondlarining o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalar va takliflar ishlab chiqildi:

- qurilish korxonalarining asosiy fondlaridan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy yo'llaridan biri korxonada marketing bo'limini tashkil qilish lozim bo'ladi;
- kelgusi qurilish ishlari bo'yicha buyurtma qabul qilishda va uyushtiriladigan tenderda ishtirok etish mobaynida qurilish smeta hujjatlarida yangi texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutish lozim.

XULOSA

So'nggi o'n besh yilda mamalakatimiz iqtisodiyotida bir me'yorda jadal va mutanosib o'sish kuzatilar ekan, bu eng avvalo ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilganligi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan siyosat olib borilayotganligi natijasida amalga oshirilmoqdadir. 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 14 milliard 600 million dollarni tashkil etganligi, buning 75 foizi kapital qurilish ishlari tashkil etgani respublikamiz umumqurilish kompleksi tomonidan amalga oshirilayotgan zalvorli vazifani ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish tarmog'ining nufuzini Prezidentimiz ma'ruzalarida keltirilgan, 2014-yilda o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'ini ishlab chiqarish sohasi korxonalari qurilishiga sarflanganligidan ko'rib olish mumkin.

Dissertatsiya ishida asoslab berilganidek, respublikamizda qurilish ishlarini yanada rivojlantirish, eng avvalo qurilish korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarni yangilash va modernizatsiya qilish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishorqali amalga oshirish mumkin bo'ladi.

SHu sababli Prezidentimizning 2014 yil 3 martdagi "Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2137-sonli Qarori mazkur zalvorli vazifani bajarishga qaratilgan.

Prezidentimiz ma'ruzalarida va yuqorida keltirilgan Qarorda belgilangan vazifalar hamda ular ijrosini ta'minlash yuzasidan ishlab chiqilgan dasturlar eng avvalo, qurilish korxonalari moddiy-texnik ba'zasini rivojlantirishga va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Mazkur Qarorlar asosida 2020-yilga qadar qurilish korxonalarini asosiy fondlar bilan ta'minlanishini rivojlantirish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va maqsadli foydalanish borasida amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqilgani va

olib borilgan ilmiy tadqiqot ishining mazkur dastur doirasiga bajarilganligi ushbu dissertatsiya ishining ahamiyatini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy ishlar amalga oshirildi:

- qurilish korxonalarining iqtisodiy-xo'jalik faoliyatini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari o'rganib chiqildi;
- qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllanish manbalarining korxona iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini o'rganildi;
- qurilish korxonasida asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi;
- tadqiqot ob'yekt sifatida olingan korxonasining asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilindi;
- korxona tomonidan amalga oshirilayotgan qurilish ishlarida asosiy fondlar ishtiroki va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Mazkur dissertatsiya ishida hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bugungi kunning o'ta dolzarb muammolaridan biri sifatida qurilish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni tashkil etish mexanizmlari izlab topildi, korxonalar asosiy fondlari tarkibini yangi va zamonaviy texnikalar bilan to'ldirish yo'llari ko'rsatib o'tildi.

Qayd etilgan etilgan muammolarni o'rganishda qurilish korxonalarining asosiy fandlari tarkibini tahlil qilish, ularni shakllantirish manbalarini o'rganish orqali va ularning qurilish korxonasining xo'jalik faoliyati natijalari bilan bog'lagan holda tadqiq qilish orqali amalga oshirildi.

Ilmiy tadqiqot ishida qurilish korxonalarining asosiy fondlari tarkibi va ularni shakllantirish manbalarining korxonalari xo'jalik faoliyati samaradorligiga va iqtisodiy ahvoliga bog'liqligini ilmiy asoslab berildi hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tayanch korxona hisoblangan "STIL-LIFE SERVIS" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga amaliyotga joriy etish uchun taqdim etildi.

Amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etilgan takliflar quyidagilardan tashkil topadi:

- rivojlangan raqobat muhitida maxsus tadqiqotlar o'tkazmasdan turib, qurilish texnikasi uchun sarflanadigan xarajatlar bilan bog'liq ko'rsatkichga asoslanib qurilish bozorida talab yuqori bo'lgan texnika vositasini tanlab bo'lmaydi. Qurilish korxonasi tomonidan kuzatish va tahlil qilish jarayonida qurilish texnikasiga bo'lgan talabga:

- hududda ushbu texnikaning mavjudligi va miqdori;

- qurilish korxonalari va iste'molchilarning ushbu texnikalardan foydalanishga o'rganganliklari;

- ushbu qurilish texnikasini ishlatish uchun zarur materiallar, ehtiyot qismlar va servis xizmatining yo'lga qo'yilganligini batafsil o'rganish talab etiladi.

Mazkur o'rganish va tahlillar jarayonida qurilish korxonasi zamonaviy va talab yuqori bo'lgan qurilish texnikasini xarid qilishga erishadi. Ammo, qurilish korxonasining faqatgina zamonaviy qurilish texnikasini sotib olish bilan kifoyalanishi yuqori samara olish imkonini bermaydi. Ya'ni huddudagi iste'molchilar qurilish korxonasi va unda mavjud texnika to'g'risida axborotga ega bo'lishlari talab etiladi. Buning uchun korxonada mavjud qurilish texnikasini reklama qilishga zarurat yuzaga keladi.

Demak, o'rta va yirik qurilish korxonalarining asosiy fondlaridan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy yo'llaridan biri korxonada marketing bo'limini tashkil etish hisoblanadi.

Marketing bo'limi qurilish ishlari bozorini o'rganish bilan bir qatorda korxonada mavjud qurilish texnikasini reklama qilish va ularni bo'sh turib qolmasligini oldini olish uchun shartnoma asosida tashkilotlarga turli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishi orqali korxonada mavjud asosiy fondlardan yanada samaraliroq foydalanish imkoni yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan. -T. Adolat, 1997.
3. 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'R adliya Vazirligining 2002-yil 4-dekabr 1192-sonli Qarori.
4. Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi O'zR Moliya Vazirligining 2004-yil 16-avgustdagi 101-sonli buyrug'i.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2137-sonli "Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashchora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.2014-yil 3-mart. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2014 y. 11-son.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2009 yil 13 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida asosiy vositalarni qayta hisoblash ishlarini tashkil etish to'g'risida" 572 sonli Qarori, 1994 yil 28 noyabrda qabul qilingan.

3. Foydalanilmayotgan asosiy fondlarni, qurilishi tugallanmagan ob'yektlarni konservatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizom . Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 16 sentabrdagi 401-sonli Qaroriga ilova.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkmasining 2015-yil 26-yanvardagi "Sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlarining barqaror faoliyatini va ularning quvvatlaridan yuqori darajada foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 11-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2015 y. 1-son. 3-modda.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2014 yil 20- yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkmasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 18-yanvar 2015-yil.

3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

5. Asosiy adabiyotlar.

1. Maxmudov E.X. "Korxona iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma.Toshkent. O'zbekiston. 2004-yil.

2. A. Stoun. Ekonomika i organizatsiya stroitel'stva. M., Ekonomika, 1999.

3. Stepanov I.S. i dr. Ekonomika stroitel'stva. M. Yurayt, 2002.

4. Andreev L.S., Reznichenko V.S. Opredelenie ekonomicheskoy effektivnosti investitsionnykh proektov i innovatsiy v stroitelstve. M. «Ekonomika stroitelstva», №9. M. Stroyinformatsiya, 2001yil.
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T, 2005.
6. Andreev L.S., Reznichenko V.S. Opredelenie ekonomicheskoy effektivnosti investitsionnykh proektov i innovatsiy v stroitelstve. M. «Ekonomika stroitelstva», №9. M. Stroyinformatsiya, 2001yil.
7. Isakov M.Y. Экономика капитального строительства. O'quv qo'llanma. T.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана. 2004 yil.
8. Davletov I.X. "Qurilish iqtisodiyoti" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent TAQI, 2011yil.
9. U.T. Fayziyeva "Buxgalteriya o'tkazmasi hisobvaraqlar rejasi bo'yicha bog'lanishlar". Toshkent. "Norma".-2011yil.
10. G'.F. G'ulomov "Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma". Toshkent.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".-2000 yil

6. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. A.S. Turdiyev "Qurilish iqtisodiyoti" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent arxitektura qurilish Instituti, Toshkent. 2012-yil.
2. Pardaev M.K., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999 y.
3. T.G. Gulyamova "3000 ta buxgalteriya o'tkazmasi". Toshkent. Norma. 2011-yil.
4. Vahobov A.V, Ibragimov A.T. Moliyaviy tahlil. Darslik. T. O'zbekiston-2002-yil.
5. Vahobov A.V., Ibragimov A.T. B. Hakimov Iqtisodiy tahlili nazariyasi. O'quv qo'llanma. T., TMI-2003 yil.
6. Asaul A.N., Shishlov G.N. Kontrol i analiz zatrat na predpriyatii. J. «Ekonomika stroitelstva», № 7, M. Stroyinformatsiya, 2000.

7.Qo'shimcha adabiyotlar.

1. A.Sotiboldiyev, D.Shodibekova va b. "Buxgalterning izohli lug'ati". Toshkent. "Norma".-2010 yil.
2. R.O.Xolbekov "Buxgalteriya hisobi nazariyasi". Toshkent. Cho'lpon. 2011-yil.
3. Yefimova O.V. "Finansovyy analiz". Kiev.1996
4. Inoyatov I.A. Nurimbetov R.I., Saidov M.S. va b. "Qurilish korxonalari xo'jalik faoliyati tahlili"
5. M.Umarova "Buxgalteriya hisobi". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. O'zbekiston. 1992.
6. Beganov V.S. "Buxgalteriya hisobi va uning xususiyatlari". Toshkent. Iqtisodiyotvahuquqdunyosi. 1999.
7. Soliyev A. "Iqtisod.Buxgalteriya hisobi.Audit" O'quv qo'llanma. Mehnat. Toshkent. 1999.

8.Internet saytlari.

1. www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
2. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
3. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
4. www.ilo.com (Xalqaro mehnat tashkiloti)
5. www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.
6. www.cer.uz (Ekonomicheskoe obozrenie jurnali sayti)